

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



“MUHANDISLIK TEXNIKASI” fakulteti

“Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis” kafedrası

**“AVTOMOBILLAR KONSTRUKSIYASI”
fanidan**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Qarshi-2023

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Uslubiy Kengashining 2022 yil "26" 08 dagi "1"-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya etilgan fan dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: QarMII "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrası dotsenti **N.Rashidov**

Taqrizchilar: QarMII UTF kafedrası dotsenti **F.Begimqulov**

QarDU dotsenti **X.Maxamov**

O'quv-uslubiy majmua "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrası yig'ilishida (bayon №____,_____2023-yil.), Muhandislik texnikasi fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon №____,_____2023-yil.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №____, _____2023-yil.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

KIRISH

Respublika iqtisodiyotining ildam odimlar bilan rivojlanishida avtomobil transportining oʻrni beqiyosdir. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti davrida, ishlab chiqarishning taraqqiyoti va uning samaradorligi koʻp jihatdan transport vositalarining ish unumdorligiga va ularning ekspluatatsion koʻrsatgichlariga hamda yoqilgʻi samaradorligiga bogʻliq. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusa va rahnomaligida vatanimiz avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi, uning taraqqiyoti yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqqoza qiladi.

“**Avtomobil konstruksiyasi**” fanini oʻqitishdan maqsad talabalarda transport vositalarining tasnifi, tuzilishi, ishlash jarayoni hamda muayyan ekspluatatsion sharoitda effektiv ishlash imkoniyatini aniqlash va uning kostruksiyasini shu sharoitda qay darajada moslashganligini baholash usullari boʻyicha yoʻnalish profiliga mos bilim, koʻnikma va malaka shakllantirishdir. Fanning asosiy vazifalari:

- avtomobil sanoati, transportining taraqqiyot va istiqbollari, turlari, qismlari, mexanizmlari, tizimlarining oʻzaro joylashuvini bilish;

- mexanizm agregatlarining vazifasi, tuzilishi va ishlashini bilish;

- avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari koʻrsatgichlarini aniqlash va taxlil etishni bilish.

Fanni oʻqitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, EXM, virtual jixozlapri, anematsiyali darsliklardan foydalanish koʻzda tutilgan.

Laboratoriya ishlari

1 – laboratoriya mashg‘uloti (ishi).

Avtomobilning umumiy tuzilishi

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko‘zlangan maqsad

Mamlakatimizda avtomobilsozlikning rivojlanish bosqichlari. Avtomobilning umumiy tuzilishi, tasniflanishi, belgilanishi va texnikaviy asosiy ko‘rsatkichlari bilan tanishish.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- Transport vositalarining tasnifi, belgilanishi va texnik tasniflarini o‘rganish.
- Avtomobilning asosiy qism va agregatlarining joylashishi bilan tanishish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar:

- “Avtomobil” – so‘zi nimani bildiradi?
- Avtomobil vazifasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
- Avtomobil necha qismdan tashkil topgan?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi


- Avtomobilning ta’rifi;
- Avtomobilning tarixi bilan tanishish;
- O‘zbekistonda avtomobil sanoatining rivojlanish tarixi bilan tanishish;
- Transport vositalarining tasniflanishi, belgilanishini o‘rganish;
- BMT YEIK tomonidan qabul qilingan tasnif bilan tanishish;
- Modifikatsiya va bazaviy model xaqida tushuncha;
- Avtomobil: dvigatel, kuzov va shassidan tashkil topganligi va ularning vazifalari bilan tanishish;
- Transmissiyaga kiruvchi agregatlar bilan tanishish va ularning vazifalari;
- Yurish qismining tarkibi bilan tanishish va ularning vazifalari.

5. Xisobot mazmuni:

- Avtomobilning umumiy ko‘rinishi sxemasini chizish.
- Avtomobildagi agregat va mexanizmlarning vazifalarini yozish.
- Avtomobilning asosiy ko‘rsatkichlari jadvali.

№	Ko‘rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Yuk ko‘tarish qobiliyati, t (passajirlar soni)	0,05 _{TH} (4)	8-10 _{TH}	6 _{TH}	0,035 _{TH} (4)
2.	Avtomobilning to‘la massasi, kg	975-1130 _{Kr}	7-8 _{TH}	4-6 _{TH}	700-850 _{Kr}
3.	Baza, mm	2675	5100	3800	2340
4.	Oldingi g‘ildiraklar koleyasi, mm	1550	2026	1800	1315
5.	Orqa g‘ildiraklar koleyasi, mm	1550	1856	1790	1315
6.	Maksimal tezlik, km/soat	180	90 _{KM/Ч}	90 _{KM/Ч}	140
7.	Avtomobilning gabarit o‘lchamlari:	1500	3360	2400	1485
7.1	Balandligi				
7.2	Uzunligi	4310	7300	6675	3495
7.3	Kengligi	1710	2500	2500	1495

AVTOMOBILNING UMUMIY SXEMASI



1. Dvigatel
2. Oldingi o'q
3. Osmalar
4. Oldingi g'ildirak tormozi
5. Oldingi g'ildirak
6. Ilashish muftasi
7. Uzatmalar qutisi
8. Kardanli uzatma
9. Asosiy uzatma
10. Differensial
11. Yarim o'qlar
12. Ketingi ko'priki
13. Ketingi g'ildirak tormozi
14. Orqa g'ildirak
15. Rul chambaragi
16. Rul mexanizmi
17. Bo'ylama tortqi
18. Richag
19. Rama

Nazariy savollar

1. Vazifasiga ko'ra avtomobillar qanday turlarga bo'linadi? Ularning xar birini izoxlang?
2. Transport avtomobillari qanday turlarga bo'linadi?
3. Yengil avtomobillar qaysi belgisiga ko'ra klasslarga bo'linadi? Misollar bilan izoxlang.
4. Yuk avtomobillari qaysi belgisiga ko'ra klasslarga bo'linadi? Misollar bilan izoxlang.
5. Avtobuslar qaysi belgisiga ko'ra klasslarga bo'linadi? Misollar bilan izoxlang.
6. Avtomobil necha qismdan tashkil topgan? Ularning vazifalarini izoxlang.
7. Shassi qanday qismlardan tashkil topgan? Ularning vazifalarini izoxlang.
8. Transmissiyaga qaysi agregatlar kiradi? Ularning vazifalarini izoxlang.
9. Yurish qismi qanday qismlardan tashkil topgan? Ularning vazifalarini izoxlang.

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Qirqimda xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. GAZ-53, GAZ-24, GAZ-66, Neksiya avtomobillari shassisi dvigatel bilan birga.
3. Avtomobilning umumiy tuzilishi bo'yicha plakatlar.
4. Adabiyotlar.

2 – Laboratoriya ishi.

Dvigatelning umumiy tuzilishi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan maqsad:

Zamonaviy avtomobillarga o'rnatilgan ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlarini o'rganish.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

a) Avtomobillarga o'rnatilgan porshenli ichki yonuv dvigatellarining belgilari bo'yicha tasniflarini o'rganish;

- b) Porshenli ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlarini o'rganish;
- v) To'rt va ikki taktli porshenli ichki yonuv dvigatellarining ish siklini o'rganish;
- g) Rotor-porshenli avtomobil dvigatellarining ishlash prinsipini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Dvigatelning vazifasi?
- b) Dvigatel qanday mexanizm va tizimlardan tashkil topgan?
- v) Takt deb nimaga aytiladi?
- g) quvvat deb nimaga aytiladi va uning birligi nima?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi


- Avtomobil dvigatellarining asosiy turlari va ularning vazifalarini o'rganing;
- Avtomobil dvigatellarining belgilari bo'yicha turlarga bo'linishini o'rganish;
- Bir silindrli dvigatel tuzilishi va asosiy parametrlarini bilish:
- a) Yuqori chekka nuqta (Y.CH.N) va pastki chekka nuqta (P.CH.N) xaqida tushuncha;
- b) Silindrning ish xajmi;
- v) Silindrning to'la xajmi;
- g) Siqish kamerasining xajmi;
- d) Dvigatelning siqish darajasi;
- ye) Dvigatelning ish xajmi.
- To'rt taktli benzinli yonuv dvigatellarining ish siklini o'rganish;
- To'rt taktli dizel dvigatellarining ish siklini o'rganish;
- Rotor-porshenli dvigatellarining ish siklini o'rganish;
- Ko'p silindrli dvigatellarning tuzilishini o'rganish;
- Dvigatelning ish tartibini o'rganish.

5. Xisobot mazmuni

1. Bir silindrli dvigatelning soddalashtirilgan sxemasini chizish;
2. Qator va V-simon ko'p silindrli dvigatellarning soddalashgan sxemalarini chizish va ularni raqamlash;
3. Dvigatelning asosiy parametrlari va ularning vazifalarini yozish.

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Dvigatelning turi	Инж.	диз	диз	кар
2.	Silindrlar soni	4	8	8	3-4
3.	Silindrlar joylashuvi	вер	V	V	вер
4.	Ish tartibi	1342	15426378	15426378	1342
5.	Dvigatelning ish xajmi, l	$V=\pi R^2 Si$	$V=\pi R^2 Si$	$V=\pi R^2 Si$	$V=\pi R^2 Si$
6.	Siqish darajasi	6-12	12-24	12-24	6-12
7.	Dvigatelning maksimal quvvati, kvт (ot kuchi)	70	240	110	40
8.	Tirsakli valning maksimal aylanishlar	5000	2000	2000	5000

	chastotasi, min^{-1}				
9.	Dvigatelning maksimal momenti, $\text{N}\cdot\text{m}$ ($\text{kg}\cdot\text{m}$)	nominal	nominal	nominal	nominal
10.	Tirsakli valning maksimal momentga to'g'ri keluvchi aylanishlar chastotasi	6000	5000	2000	5000



2-rasm. Porshenli ichki yonuv dvigatelining asosiy ko'rsatkichlari

Nazariy savollari

1. Avtoombil dvigatellari yonuvchi aralashma xosil qilish usuliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Avtoombil dvigatellari ish aralashmasining alanganishi bo'yicha qanday turlarga bo'linadi?
3. Avtoombil dvigatellari ish jarayonini xosil qilish usuliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Avtoombil dvigatellari silindrlar soni va ularning joylashuviga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

5. Silindrning ish xajmi deb nimaga aytiladi?
6. Dvigatelning ish xajmi deb nimaga aytiladi?
7. Porshen yo‘li deb nimaga aytiladi?
8. Silindrning to‘la xajmi nima?
9. Siqish kamerasining xajmi nima?
10. Ish sikli va takt deb nimaga aytiladi?
11. Dvigatel silindrlarining tartib raqamini belgilash qoidasini izoxlang.
12. Benzinli dvigatellarda yonish jarayonida xarorat va bosim qancha?
13. Chiqarish taktida yonib bo‘lgan gazlarning xarorat va bosimi qancha?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Bir silindrli dvigatel modeli.
3. Neksiya, GAZ, KamAZ, ZIL dvigatellarining stendi.
4. Plakatlar.
5. Adabiyotlar:

3 – Laboratoriya ishi.

Krivoship-shatun mexanizmi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan maqsad:

Talabalarni krivoship-shatun mexanizmiining vazifasi va dvigatelda kuchlarni uzatish va xarakatni boshqa turga aylantirib berishdagi roli bilan tanishtirish. Mexanizmning asosiy detallarini va ularning dvigatel ish jarayonidagi rolini ko‘rsatish.

2. Laboratoriya ishinin xajmi.

- a) Krivoship-shatun mexanizmiga tegishli qo‘zg‘almas detallarning vazifasi va ularning tuzilishini o‘rganish;
- b) Krivoship-shatun mexanizmiga tegishli qo‘zg‘almas detallarning vazifasi va ularning tuzilishini o‘rganish;
- v) Dvigatelni ramaga maxkamlash tizimini o‘rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Krivoship-shatun mexanizmining zaruriyati nimadan iborat?
- b) Krivoship-shatun mexanizmida qaysi detallar qo‘zg‘almas detallar xisoblanadi?
- v) Krivoship-shatun mexanizmida qaysi detallar qo‘zg‘aluvchan detallar xisoblanadi?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Krivoship-shatun mexanizmining vazifasi;

- Krivoship-shatun mexanizmining qo'zg'almas detallari konstruksiyalarini o'rganish:

a) Silindr bloki konstruksiyasini o'rganish;

b) Silindr blokiga o'rnatiladigan agregatlarning o'rnatilish joylarini aniqlash;

v) Silindr bloki kallagining konstruksiyasini o'rganish. Svecha va forsunkaning o'rnatilish joylarini aniqlash;

g) Silindrning va karter paddonining konstruksiyasini o'rganish;

- Krivoship-shatun mexanizmining qo'zg'almas detallari konstruksiyalarini o'rganish:

a) Porshen konstruksiyasini o'rganish;

b) Porshen barmog'i konstruksiyasini o'rganish;

v) Kompresion va moy sidirgich xalqalarning konstruksiyasini o'rganish;

g) Shatun konstruksiyasini o'rganish;

d) Tirsakli val konstruksiyasini o'rganish;

ye) Maxovik konstruksiyasini o'rganish.

- Dvigatelni ramaga o'rnatishni o'rganish.

5. Xisobot mazmuni

1. Krivoship-shatun mexanizmining vazifasi.

2. Bir silindrli dvigatelning KSHM ko'rsatilgan sxemasi.


3. KSHM detallarining vazifalari.

4. Tirsakli val sxemasi (O'qituvchi tomonidan beriladi).


5. Krivoship-shatun mexanizmining asosiy ko'rsatkichlarining qiyosiy jadvali.

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Tirsakli val	5	9	7-9	4-5
	- o'zak bo'yinlari				
	- shatun bo'yinlari	4	8	6-8	3-4
2.	Xalqalar soni:	2	2	3	2
	- kompresion				
	- moy sidirgich	3	1	1	3
3.	Shatun bo'yinlarining o'zaro joylashuv burchagi	90	45	45	90-120
4.	KSHMning kompanovka sxemasi	Bir qator	V-simon	V-simon	Bir qator

BIR SILINDRLI PORSHENLI ICHKI YONUV DVIGATELI



A)



B)

- A - BO'YLAMA QIRQIM
- B - KUCHLAR SXEMASI
- 1 - MOY PODDON
- 2 - PODSHIPNIK
- 3 - TIRSAKLI VAL
- 4 - KARTER
- 5 - SILINDR
- 6 - PORSHEN
- 7 - BLOK KALLAGI
- 8 - 10 - KLAPANLAR
- 9 - SVECHA
- 11 - HALQALAR
- 12 - PORSHEN BARMOG'I
- 13 - SHATUN
- 14 - SHATUN BO'YIN
- 15 - JAG'LAR
- 16 - MAHOVIK
- 17 - O'ZAK BO'YIN
- r - KRIVOSHIP UZUNLIGI
- l - SHATUN UZUNLIGI

Nazariy savollar

1. Krivoship-shatun mexanizmining vazifasi.
2. Porshenning vazifasi nimadan iborat?
3. Porshen yubkasining ovalsimonligi va undagi T yoki P shaklidagi kesiklar nima uchun kerak?
4. Porshen barmog'ining vazifasini ayting.
5. Kompresion xalqaning vazifasini ayting.
6. Moy sdirgich xalqaning vazifasini ayting.
7. Shatunning vazifasi va tuzilishini ayting.
8. Tirsakli valning vazifasini ayting.
9. Tirsakli val qanday elementlardan tashkil topgan?
10. Maxovikning vazifasini ayting.
11. Tirsakli valga nima sababdan posongilar qo'yilgan?
12. Tirsakli valning o'q bo'ylab siljishini cheklash maqsadida nima qilingan?
13. Tirsakli valning shatun va o'zak bo'yinlariga nima sababdan antifriksion qotishma qo'yilgan vkladishlar qo'yiladi.
14. Gilzalarning vazifasi va turlarini ayting?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, KamAZ, ZIL dvigatellarining qirqilgan stendi.
3. Krivoship-shatun mexanizmi detallari majmui.
4. Plakatlar.
5. Adabiyotlar:

4 – Laboratoriya ishi.

Gaz taqsimlash mexanizmi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko‘zlangan maqsad:

Gaz taqsimlash mexanizmining vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Gaz taqsimlash mexanizmining vazifasi;
- b) Klapanlari pastda joylashgan gaz taqsimlash mexanizmining tuzilishi, ishlashi, asosiy detallari va bu mexanizmining yeamchiligini o‘rganish;
- v) Klapanlari yuqorida joylashgan gaz taqsimlash mexanizmining tuzilishi, ishlash prinsipi. Detallarning vazifalari va ularning konstruksiyalarini o‘rganish;
- g) Gaz taqsimlash mexanizmining fazalarini o‘rganish;
- d) Taqsimlash vali silindr kallagida va silindr blokida joylashgan gaz taqsimlash mexanizmlarining konstruksiyalarini o‘rganish.


3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Gaz taqsimlash mexanizmining vazifasi.
- b) Klapanlarning joylashuvi bo‘yicha gaz taqsimlash mexanizmi necha xil bo‘ladi?
- v) Gaz taqsimlash mexanizmining asosiy detallarin ayting?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Gaz taqsimlash mexanizmining vazifasi;
- Klapanlari pastda joylashgan gaz taqsimlash mexanizmining tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish. Bu mexanizmning kamchiligi.
- Klapanlari yuqorida ajoylashgan gaz taqsimlash mexanizmining tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
- Taqsimlash valining vazifasi. Taqsimlash mushtchasidan klapan sterjeniga uzatilayotgan kuchni sxemada ko‘rish.
- Kiritish va chiqarish klapanlarining konstruksiyasini o‘rganish.
- Klapan o‘rindig‘i va klapani yo‘naltiruvchi vtulkasi konstruksiyasini o‘rganish.
- Klapan prujinalarining konstruksiyasi va ularni maxkamlash usulini o‘rganish.
- Taqsimlash mexanizmining yuritmalarini o‘rganish.
- Turtkichlarni konstruksiyasini o‘rganish.
- Klapanlari yuqorida joylashgan GTMning shtanga, koromislolarning vazifasi va ularning konstruksiyasini o‘rganish.
- Klapanlarning issiqlik tirqishining zaruriyatini o‘rganish.
- Hidrokompensator xaqida tushuncha berish. Ularning joylanish sxemaisni o‘rganish.
- To‘rt klapanli, ikkita taqsimlash valiga ega bo‘lgan GTMni o‘rganish.
- Gaz taqsimlash fazalarining sxemasini chizib, uning zaruriyatini o‘rganish.

GAZ TAQSIMLASH MEXANIZMINING SXEMASI



- A - KLAPANLARI PASTDA JOYLASHGAN
- B - KLAPANLARI YUQORIDA JOYLASHGAN
- 1 - 2 - TISHLI G'ILDIRAKLAR
- 3 - TIRSAKLI VAL
- 4 - ROSTLOVCHI BOLT
- 5 - KLAPAN
- 6 - KLAPAN EGARI
- 7 - PRUJINA
- 8 - SHAYBA
- 9 - TURTKICH
- 10 - MUSHTCHA
- 11 - KOROMISLO
- 12 - KOROMISLO O'QI
- 13 - KRONSHTEYN
- 14 - SHTANGA

5. Xisobot mazmuni

1. Gaz taqsimlash mexanizmining vazifasi.
2. Gaz taqsimlash mexanizmining soddalashgan sxemasi(klapanlari pastda va yuqorida joylashgan).
3. Berilgan avtomobil uchun gaz taqsimlash fazasi sxemasini chizish (avtomobil markasi o'qituvchi tomonidan beriladi).
4. Detallarnin vazifalari.
5. Gaz taqsimlash mexanizmining asosiy ko'rsatkichlarining qiyosiy jadvali.

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Gaz taqsimlash mexanizmining turi	Taqsimlash valini yo'qori joylashish	Taqsimlash valini yo'qori joylashish	Taqsimlash valini yo'qori joylashish	Taqsimlash valini yo'qori joylashish
2.	Taqsimlovchi shesternyalar uzatish soni	2	2-3	2-3	2
3.	Taqsimlash validagi tayanch bo'yinlar soni	3	4	4	3
4.	Taqsimlash validagi mushtchalar soni	8	16	16	6-8

5.	Klapan tirkashi	0.4gacha	0.4gacha	0.4gacha	0.4gacha
6.	Gaz taqsimlash valining yuritmasi	Tasmali/zanjirli	zanjirli	zanjirli	Tasmali

Nazariy savollari

1. GTMning vazifasi va tasnifini ayting?
2. Kiritish va chiqarish klapanlarining vazifasi va ularning bir-biridan farqi nimadan iborat?
3. Klapan prujinalarining vazifasini ayting.
4. Taqsimlash valining vazifasi va u qanday elementlardan tashkil topgan.
5. Taqsimlash valining yuritmalarini ayting.
6. Klapanlarning qaysi biri ko‘proq qiziydi va nima uchun?
7. Klapani yuqorida joylashgan GTMning shtanga va karomislarning vazifasini ayting?
8. Issiqlik tirkishining zaruriyati nimadan iborat?
9. Hidrokompensatorning vazifasini ayting.
10. Gaz taqsimlash fazalarining zaruriyatini tushuntiring.
11. Taqsimlash vali o‘q bo‘ylab siljimasligi uchun konstruksiyada nima qilingan.
12. Nima uchun gaz taqsimlash vali, tirsakli valga nisbatan ikki marta kam aylanadi?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, KamAZ, ZIL dvigatellarining qirqilgan stendi.
3. Gaz taqsimlash mexanizmi detallari majmui.
4. Plakatlar.
5. Adabiyotlar:

5 – Laboratoriya ishi.

Dvigatelning sovutish tizimi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko‘zlangan maqsad:

Talabalarga sovutish tizimining zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Dvigatelning sovutish tizimining tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish. Sovutish tizimiga taaluqli detallarning vazifasi va konstruksiyasini o‘rganish.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Sovutish tizimining zaruriyati va vazifasini o‘rganish.
- b) Sovutish tizimi detallarining vazifasi va ularning konstruksiyasini o‘rganish.
- v) Sovutish tizimi elementlarining dvigatelda joylashishi va maxkamlanishini o‘rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarining tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Sovutish tizimining vazifasi nimadan iborat.
- b) Nima uchun dvigatelning xarakatlanuvchi qismidagi detallar qiziydi? Sababini tushuntiring.
- v) Ish yo‘li taktida xosil bo‘lgan issiqlikning qancha qismi dvigatel detallarining qizishiga sarf bo‘ladi?
- g) Sovutish usullarini ayting.
- d) Sovutish tizimining asosiy elementlarini ayting?


4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Sovutish tizimining zaruriyati va vazifasi;
- Sovutish tizimi elementlarining tuzilishi, ularning dvigatelda joylanishini o‘rganish;
- Sovutish tizimining tuzilishi va ishlashini o‘rganish;
- Sovutish tizimidagi suyuqlikning kichik va katta doira bo‘yicha aylanish jarayonini o‘rganish;
- Suv nasosining vazifasi va uning konstruksiyasini o‘rganish;
- Radiatorning vazifasi va uning konstruksiyasini o‘rganish;
- Radiator qopqog‘idagi bug‘ va xavo klapanlarining vazifasi va ishlash tartibini o‘rganish;
- Kengaytirish bachogining vazifasini o‘rganish;
- Termostatning vazifasi, ularning xillari va konstruksiyalarini o‘rganish;
- Shamolparrakning vazifasi va uning yuritmasini o‘rganish;
- Sovutish suyuqlig‘i haqida tushuntirish.
- Antifriz “Tosol”ning tarkibiy qismini o‘rganish.

5. Xisobot mazmuni

1. Sovutish tizimining vazifasi.
2. Sovutish tizimining soddalashgan sxemasi.
3. Detallarning vazifalari.
4. Sovutish tizimi asosiy ko‘rsatkichlarining qiyosiy jadvali.

SOVUTISH TIZIMI



- 1 - TO'KISH KRANI
- 2 - RADIATOR
- 3 - JALYUZ
- 4 - TRUBKA
- 5 - QOPQOQ
- 6 - PARRAK
- 7 - SHKIV
- 8 - CHIQRARISH PATRUBOG'
- 9 - KICHIK AYLANISH TRUBKASI
- 10 - TERMOSTAT
- 11 - SILINDR
- 12 - SUV TAQSIMLOVCHI QUVUR
- 13 - TERMOMETR
- 14 - SUV NASOSI
- 15 - KIRITISH PATRUBOGI

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Sovutish tizimining turi	C			
2.	Radiator turi	K	A	ME	PAJI
3.	Termostat turi	СЕРЕЗИНЬ	ЭТИЛ СПИРТ		
4.	Termostat klapani: - boshlang'ich ochilish gradusi	72	72	72	72
	- to'la ochilish gradusi	80	80	80	80
5.	Radiator qopqog'i klapanlarining ochilish bosimi, MPa - Bug' klapani	0,1	0,1	0,1	0,1
	- Xavo klapani	0,1	0,1	0,1	0,1
6.	Ventillar turi	ПАПРАКЛИ	ПАПРАКЛИ	ПАПРАКЛИ	ПАПРАКЛИ

Nazariy savollari

1. Sovutish tizimining vazifasini ayting?
2. Sovutish tizimi elementlari nimalardan tashkil topgan?
3. Suv nasosining vazifasi nimadan iborat iborat?
4. Suv nasosi nima yordamida va qayerdan xarakatni oladi?
5. Radiatorning vazifasi nimadan iborat.
6. Radiator qopqog'ida qanday klapanlar bor?

7. Radiatorga bug'-xavo klapani nima maqsadda qo'yilgan?
8. Kengaytirish bachogining vazifasi nimadan ibrat?
9. Termostatning vazifasi nimadan iborat?
10. Suyuq va qattiq to'ldirgichli termostatlar bir-biri bilan nima bilan farq qiladi.
11. Sovutish tizimida suyuqlikning optimal xarorati qaysi oraliqda bo'lishi kerak?
12. Sovutish tizimida termostatning o'rnatilishi sababi nima?
13. Shamolparrak (ventilyator) nima uchun kerak?
14. Suyuqlik bilan sovutish sistemasi, xavo bilan sovutish sistemasiga nisbatan qanday afzalliklarga ega.

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, KamAZ, ZIL dvigatellarining qirqimi ko'rsatilgan stendlar.
3. Sovutish tizimi detallarining majmui.
4. Dvigatel sovitish tizimi plakatlarining to'plami.
5. Adabiyotlar:

6– Laboratoriya ishi.

Dvigatelning moylash tizimi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga moylash tizimining zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Dvigatelning moylash tizimining tuzilishi, ishlash prinsipini va detallarining konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Moylash tizimining zaruriyati va vazifasini o'rganish.
- b) Moylash tizimining tuzilishini o'rganish.
- v) Moylash tizimi detallarining vazifasi va ularning konstruksiyasini o'rganish.
- g) Aralashgan (kombinatsiyalashgan) moylash tarmog'ining konstruktiv xususiyatlarini o'rganish.
- d) Dvigatel karterining shamollatish tizimini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Moylash tizimining vazifasi nimadan iborat.
- b) Nima uchun xarakatlanayotgan dvigatellarni moylash lozim?
- v) Qanday moylash usullarini bilasiz?
- g) Moylash tizimining asosiy detallari, element va asboblarini ayting?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi


- Moylash tizimining zaruriyati va vazifasi;
- Moylash tizimining tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish; Moylash usullari;

- Moy nasosining vazifasi va uning konstruksiyasini o‘rganish, shuningdek ularning dvigatelda joylashishi va maxkamlanishini o‘rganish;
- Moy nasosining yuritmasini o‘rganish shuningdek nasosdagi reduksion klapaning vazifasi va o‘rnatilgan joyini o‘rganish;
- Filtrlarning vazifasi va ularning konstruksiyasini o‘rganish;
- Markazdan qochma filtr – sentrafuganing tuzilishi va ishlashini o‘rganish;
- Moy sovutish radiatorining vazifasi va tuzilishini o‘rganish;
- O‘tkazgich va saqlagich klapanlarining vazifalari va uning o‘rnatilgan joyi;
- Karterning shamollatish tizimini vazifasi va uni ishlash prinsipini o‘rganish;

5. Xisobot mazmuni

1. Moylash tizimining vazifasi.
2. moylash tizimining soddalashgan sxemasi.
3. Detallarnin vazifalari.
4. Moylash tizimi asosiy ko‘rsatkichlarining qiyosiy jadvali.

MOYLASH TIZIMINING SXEMASI



- 1 - MAYIN FILTR
- 2 - ELEKTRLI TERMOMETR
- 3 - MOY RADIATORI
- 4 - SAQLAGICH KLAPANI
- 5 - KRAN
- 6 - MOY QABUL QILGICH
- 7 - MOY NASOSI
- 8 - REDUKTSION KLAPAN
- 9 - O‘TKAZISH KLAPANI
- 10 - DAG‘AL FILTR
- 11 - ELEKTRLI MANOMETR
- 12 - ASOSIY MOY MAGISTRALI
- 13 - O‘ZAK PODSHIPNIKLARI
- 14 - PODSHIPNIK
- 15 - KOROMISLO O‘QI
- 16 - MOY SATHINI O‘LCHAGICH
- 17 - MOY QUYISH BO‘G‘IZI

№	Ko‘rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1	Moylash sistemasini turi	Kombinatsiyalashgan	Kombinatsiyalashgan	Kombinatsiyalashgan	Kombinatsiyalashgan
2	Moy nasosining turi	Markazdan qochma	NSH	NSH	Markazdan qochma
3	Sistemadagi moy bosimi, MPa	0,4	0,4-0,6	0,4-0,6	0.4
4	Bosim	Tirsakli val	Tirsakli val	Tirsakli val	Tirsakli val

.	ostida moylanadigan detallar	bo'yinchalari.vklad ishlar. koromislo o'qi.porshen barmogi	bo'yinchalari.vklad ishlar. koromislo o'qi.porshen barmogi	bo'yinchalari.vklad ishlar. koromislo o'qi.porshen barmogi	bo'yinchalari.vklad ishlar. koromislo o'qi.porshen barmogi
5	Moy filtrlarinin g turlari	Markazdan qochma	Markazdan qochma	Markazdan qochma	Markazdan qochma

Nazariy savollari

1. Moylash tizimining vazifasini ayting?
2. Moylash tizimidagi detallar qanday usulda moylanadi?
3. Moy nasosining vazifasi va u xarakterni qayerdan oladi?
4. Reduksion klapaning vazifasi va u qayerga o'rnatilgan.
5. Dag'al filtrning vazifasi nimadan iborat?
6. O'tkazish klapanining vazifasi va u qayerda o'rnatilgan?
7. Mayin filtrning vazifasi nimadan iborat.
8. Moy nasosidan kelayotgan moyning qancha qismi mayin filtrda tozalanadi va u qayerga oqib tushadi!
9. Sentrafugaga moy qayerdan yuboriladi va unda moy qanday tozalanadi.
10. Tirsakli valning o'zak va shatun bo'yinlariga qayerdan va qaysi usulda moy yetkazib beriladi?
11. Silindr yuzalariga moy qayerdan va qanday yetkazib beriladi?
12. Porshen barmog'i qanday moylanadi?
13. Taqsimlash valining podshipniklariga, turtkichlar va klapanlarga moy qayerdan va qaysi usulda keltiriladi.
14. Moy radiatorining vazifasi va u qaysi avtomobillarda o'rnatiladi?
15. Dvigatelning moy karteri nima sababdan shamollatib turilishi keprak.

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakterlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, KamAZ, ZIL dvigatellarining qirqimi ko'rsatilgan stendlar.
3. KamAZ avtomobilining elektrlashtirilgan moylash tizimining sxemasi.
4. Moylash tizimi detallarining majmui.
4. Dvigatel moylash tizimi plakatlarining to'plami.
5. Adabiyotlar:

7– Laboratoriya ishi.

Benzinli dvigatellarning ta'minlash tizimi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga ta'minlash tizimining vazifasini, shuningdek xavo bilan yonilg'idan iborat yonuvchi aralashmani xosil qilishni tushuntirish. Benzinli dvigatellarning ta'minlash tizimining tuzilishi va ishlash prinsipini, shuningdek ta'minlash tizimiga kiruvchi asboblarning vazifalari va konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Ta'minlash tizimining vazifasini o'rganish.
- b) Ta'minlash tizimining prinsipl sxemasi va ishlashini o'rganish.
- v) Yonuvchi aralashma va uni tayyorlash usullarini o'rganish.
- g) Ta'minlash tizimi elementlarining vazifalari, tuzilishi va ularning konstruksiyalarini o'rganish.
- d) Gaz ballonli avtomobillar dvigatelining ta'minlash tizimini o'rganish.
- ye) Dvigatellarda benzinni purkash tizimlarini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Ta'minlash tizimining vazifasi nimadan iborat.
- b) Yonilg'i aralashma deganda nimani tushunasiz?
- v) Nima sababdan benzin to'g'ridan to'g'ri silindr ichiga kiritilsa yonmaydi? Sababini ayting.
- g) Benzinli va injektorli dvigatellarning ta'minlash tizimidafarq nimadan iborat?
- d) Ta'minlash tizimining asosiy elementlarini ayting.

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

1. Benzinli dvigatelning ta'minlash tizimi:

- Ta'minlash tizimining vazifasini o'rganish;
- Benzinli dvigatelning ta'minlash tizimining tuzilishi va ishlash prinsipi;
- Ta'minlash tizimining asosiy detallari, vazifalari va konstruksiyalarini o'rganish;
- Yonuvchi aralashma va uni tayyorlashni o'rganish;
- Oddiy karbyuratorning sxemasi va ishlashini o'rganish;
- Dvigatelning ishlash rejimini o'rganish;
- Karbyuratorning konstruksiyasini o'rganish;
- Yonilg'i nasosi va uning yuritmasini o'rganish;
- Yonilg'i tozalash filtri konstruksiyasi va ularning o'rnatilish joyini o'rganish;
- Xavo filtri konstruksiyasini o'rganish;
- Yonilg'i nasosining vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipini o'rganish;
- Kiritish va chiqarish quvurlarining konstruksiyalarini o'rganish ;
- Tovush so'ndirgich konstruksiyalarini o'rganish;

2. Gaz bilan ishlaydigan dvigatelning ta'minlash tizimi:

- Gaz bilan ishlaydigan dvigatelning ta'minlash tizimida ishlatiladigan gazlar.
- Suyultirilgan gazda ishlaydigan dvigatel ta'minlash tizimi sxemasi va ishlash prinsipini o'rganish;
- Siqilgan gazda ishlaydigan dvigatelning ta'minlash tizimi sxemasi va ishlash prinsipini o'rganish;
- Ta'minlash tizimiga o'rnatilgan asbob-anjomlarning tuzilishi, joylashishi va ularni dvigatelga maxkamlanishini o'rganish;
- Suyultirilgan va siqilgan gazlarda ishlaydigan dvigatellarning bir-biridan afzalliklarini o'rganish;

- Gaz bilan ishlaydigan dvigatelning, benzinli dvigatellarga nisbatan afzallik va kamchiliklarini o‘rganish;

- Gaz reduktorining konstruksiya va ishlash prinsipini o‘rganish.

- Suyultirilgan va siqilgan gaz ballonlarining konstruksiyalari va ularni avtomobilga o‘rnatishni o‘rganish;

3. Injektorli dvigatellarning yonilg‘i purkash tizimi

- benzinli dvigatellarning ta‘minlash tizimining asosiy kamchiligini o‘rganish.

- injektorli ta‘minlash tizimining vazifasi, umumiy sxemasi orqali ishlash prinsipini o‘rganish.

- yonuvchi aralashma tayyorlash va uzatish tizimini o‘rganish.

- elektron boshqarish blokining ishlash prinsipini o‘rganish;

- yonilg‘i nasosi konstruksiyasi, uning yuritmasi va ishlashini o‘rganish;

- injektorlarning konstruksiyasi, dvigatelga o‘rnatilishini o‘rganish;

- yonilg‘i tozalash filtri konstruksiyasi;

- xavo filtri konstruksiyasi va ularning o‘rnatish joyi;

- kiritish va chiqarish quvurlarining konstruksiyalari;

- purkash forsunkasi konstruksiyasi, tuzilishi va ishlashi;

- tovush so‘ndirgich konstruksiyalari, tuzilishi va ishlash prinsipi.

5. Xisobot mazmuni

1. Benzinli dvigatellarning ta‘minlash tizimining vazifasi.

2. Benzinli dvigatellarning ta‘minlash tizimining sxemasini chizish.


3. Suyultirilgan va siqilgan gazda ishlaydigan dvigatelning ta‘minlash tizimining soddalashgan sxemasini chizish.

4. Injektorli dvigatelning soddalashgan yonilg‘i purkash sxemasini chizish.

5. Ta‘minlash tizimining asosiy ko‘rsatkichlarining qiyosiy taqqoslash jadvali.

№	Ko‘rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Yonilg‘i filtrlarining turi: a) birlamchi tozalash filtri	Памперс	Тарелкали тиндиргич	Тарелкали тиндиргич	Памперс
	b) mayin tozalash filtri	Қоғозли ипли	Қоғозли ипли	Қоғозли ипли	Қоғозли ипли
2.	Karbyurator markasi	К-126	-	К-126	К-126
3.	Karbyuratordagi kameralar soni	2	-	2	2
4.	Benzonasos turi	диафрагмали	-	диафрагмали	диафрагмали
5.	Benzonasos hosil qilgan bosim МПа	0.1	-	0.1	0.1
6.	Purkash forsunkasining purkash bosimi, МПа	-	13-18	-	-

DIZEL DVIGATELINING TA'MINLASH TIZIMI



- 1 - YUQORI BOSIM YONILG'I NASOSI
- 2 - YONILG'I BAKI
- 3 - QABUL QILGICH
- 4, 6, 7, 11 ... 15 - YONILG'I TRUBKALARI
- 5 - DAG'AL TOZALASH FILTRI
- 8 - HAYDOVCHI NASOS
- 9 - RUKOYATKA
- 10 - MAYIN TOZALASH FILTRI
- 16 - FORSUNKA
- 17 - HAVO FILTRI
- 18 - SILINDR

Nazariy savollari

1. Benzinli dvigatelning ta'minlash tizimining vazifasi.
2. Ta'minlash tizimi qanday asbob-anjomlardan tashkil topgan?
3. Xavoning ortiqlik koeffitsiyenti nima?
4. Yonilg'i aralashmasining tarkibi nimadan iborat?
5. Dvigatelning turli rejimda ishlashida aralashma qanday tarkibda bo'ladi?
6. Dvigatelning ishlash rejimini tushuntiring.
7. Oddiy karbyuratorning kamchiliklari nimadan iborat?
8. Tezlatkich nasosi qaysi paytda ishlaydi va bunda qanday yonilg'i aralashma xosil bo'ladi.
9. Ekonomayzer qaysi paytda ishlaydi va bunda qanday yonilg'i aralashma xosil bo'ladi.
10. Yonilg'i nasosining vazifasi va uning yuritmasini ayting.
11. Yonilg'i tozalash filtrining vazifasi nimadan iborat?
12. Xavo filtri vazifasi va uning turlari nimadan iborat?
13. Diffuzerning vazifasi nima?
14. Kalkovuchli kamera nima uchun kerak va u atmosfera bilan qanday bog'langan?
15. Elektron yonilg'i purkash tizimi qanday afzalliklarga ega?
16. Injektorli ta'minlash tizimi qanday funksional bloklardan tashkil topgan.
17. Yonilg'i nasosining, yonilg'i bakida joylashtirishning sababi nimada?
18. Injektorli ta'minlash tizimida yonilg'i bilan xavoning aralashmasi qayerda sodir bo'ladi?
19. Injektorli ta'minlash tizimida benzinni purkash bosimi necha MPa?
20. Gaz bilan ishlaydigan dvigatelning ta'minlash tizimida qanday gazlar ishlatiladi?
21. Gazsimon yonilg'ining suyuq yonilg'iga nisbatan qanday afzalliklarga ega?
22. Qanday xarorat va bosimda gaz xolatdan suyultirilgan gazga atsyatlanadi.

23. Saqlagich klapani gaz bosimini qaysi qiymatgacha ushlab turadi.
24. Suyultirilgan gazni bug'latish maqsadida qanday issiqlik manbaidan foydalaniladi.
25. Siqilgan gazda ishlovchi avtoombillarda filrlar qanday tartibda o'rnatilgan?
26. Gaz aralashtirgich qanday vazifani bajaradi?
27. Karbyurator-aralashtirgichgv kirayotgan xavo qaysi filtrdan o'tadi?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, KamAZ, ZIL dvigatellarining qirqimi ko'rsatilgan stendlar.
3. Bir va ikki kamerali karbyuratorlar majmui.
4. Injektorni ish jarayonini ko'rsatuvchi o'quv stendi.
5. Gaz bilan ishlaydigan dvigatellarning ishlash jarayonini ko'rsatuvchi elektrlashtirilgan stend.
6. Benzinli dvigatellarning ta'minlash tizimini yorituvchi plakatlar majmui.
7. Adabiyotlar:

8– Laboratoriya ishi.

Dizel dvigatellarining ta'minlash tizimi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga dizel dvigatellarning ta'minlash tizimi, benzinli dvigatellarning ta'minlash tizimidan farqini tushuntirish. Dizel dvigatellarining ta'minlash tizimining tuzilishi, ishlash prinsipi, shuning dek ta'minlash tizimiga kiruvchi asboblarning vazifalari va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.


- a) Ta'minlash tizimining vazifasini o'rganish.
- b) Aralashma xosil qilish usullari va purkash jarayonini o'rganish.
- v) Ta'minlash tizimining prinsipial sxemasi va ishlashini o'rganish.
- g) Ta'minlash tizimi elementlari va asboblarining vazifalari, tuzilishi va ularning konstruksiyalarini o'rganish.
- d) Past va yuqori bosim yonilg'i nasosining tuzilishi va ishlashini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarining tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) dizel ta'minlash tizimining, benzinli dvigatel ta'minlash tizimidan farqi nimadan iborat?
- b) Dizel dvigatellarining qanday afzalliklari bor?
- v) Dizel dvigatellarida qanday yoqilg'i qo'llanadi?
- d) Ta'minlash tizimining asosiy elementlari va asboblarini ayting?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Ta'minlash tizimining tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish;
- Past va yuqori bosim liniyalaridagi asbob-anjomlarning vazifalari va konstruksiyalarini o'rganish;
- Aralashma xosil qilish usullari va purkash jarayonini o'rganish:
 - a) Ajratilmagan yonish kamerasining tuzilishi;
 - b) Uyurmali ajratilgan yonish kamerasi;
 - v) Old kamerali yonish kamerasi;
 - g) Kiritish jarayonida xavoni uyurish usullari;
- Yonilg'i xaydash nasosining vazifasi, tuzilishi va ishlashini o'rganish;
- Dizel yonilg'i tozalash filtri konstruksiyalari va ularni o'rganish joylarini shrgpnish;
- Xavo filtri konstruksiyasini o'rganish;
- Yuqori bosim yonilg'i nasosining soddalashagan sxemasi orqali ishlash prinsipini o'rganish;
- Yuqori bosim yonilg'i nasosining asosiy qismlari va ularning tuzilishini o'rganish.
- Tirsakli val aylanishlar sonini cheklovchi rostlagichi-barcha rejimli, tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.
- Forsunkaning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.



8.1-rasm. Dizel dvigatellarining ta'minlash tizimi

5. Xisobot mazmuni

1. Dizel dvigatellarining ta'minlash tizimi sxemasini chizish.
2. Ta'minlash tizimining asosiy elementlari va asbob-anjomlarning vazifasini qisqacha yoritish.

3. Yuqori bosim yonilg'i nasosining soddalashgan sxemasini chizish va ishlashini yoritib berish.

5. Ta'minlash tizimining asosiy ko'rsatkichlarining qiyosiy jadvali.

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Forsunkalar (injektorlar) soni	4	8	8	-
2.	Forsunkalar (injektorlar) turi	инжектор	механик	механик	инжектор
3.	Purkash bosimi, MPa	2,5-4	13-18	13-18	2,5-4
4.	Yonilg'i xaydash nasosi xosil qilgan bosim, MPa	2,5-4	13-18	13-18	2,5-4
5.	Xavo filtrining turi	Qog'ozli	Qog'ozli	Qog'ozli	Qog'ozli

Nazariy savollari

1. Dizel dvigatellarining ta'minlash tizimi qanday uzellardan (qismlardan) tashkil topgan?
2. Benzinli va dizel dvigatellarining ta'minlash tizimidagi farqni ayting?
3. Dvigatelning turli rejimda ishlashi nimani xisobiga amalga oshiriladi.
4. Yonilg'i xaydash nasosinin vazifasi nimadan iborat?
5. Yonilg'i xaydash nasosi xarakatni qayerdan oladi?
6. Dizel dvigatelida xavo filtri qayerda o'rnatilgan?
7. Tirsakli val ikki marta aylanganda yonilg'i nasosini xarakatiga keltiruvchi mushtchali val necha marta aylanadi?
8. Porshenli xaydash nasosining o'rtacha yonilg'i xaydash bosimi qanchaga teng?
9. Yuqori bosim yonilg'i nasosining vazifasini ayting va u qayerga o'rnatilgan.
10. Yuqori bosim yonilg'i nasosi qanday detallardan tashkil topgan?
11. Plunjer nima uchun xizmat qiladi va u qanday moylanadi?
12. Yuqori bosim yonilg'i nasosining qaysi bir qismi chiqarish klapanining yopilishini ta'minlaydi?
13. Setan soni deb nimaga aytiladi.
14. Plunjer bilan gilza orasidagi tirqish necha mm ni tashkil yetadi.
15. Silindr ichiga kiritilgan tozalangan xavo, siqish taktida bosim qancha MPa bo'ldi?
16. Dag'al va mayin filtrlarning vazifasi nimadan iborat?
17. Dag'al va mayin filtrlar necha mmgacha bo'lgan zarrachalarni ushlab qoladi?
18. Mayin tozalash filtridagi o'tkazish klapani nima uchun kerak?
19. Uzatilayotgan yonilg'i miqdorini rostlash mexanizmi vazifasini tushuntiring.
20. Yonilg'i purkashni ilgariyatish avtomatik muftaning vazifasini tushuntiring.
21. Tirsakli val aylanishlar chastotasining rostlagichining vazifasini tushuntiring.
22. Forsunkaning vazifasini nimadan iborat?
23. Forsunka purkagichlar konstruksiyasiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
24. Yonilg'i bakining vazifasi va u qanday tuzilgan?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. KamAZ, MAZ dvigatellarining qirqimi ko'rsatilgan stendlar.
2. Yuqori bosim yonilg'ich nasosining qirqimdagi o'quv stendi.
3. Forsunkalar komplekti.
6. Ta'minlash tizimining asbob-anjomlar majmui.
5. Dizel dvigatellarining ta'minlash tizimi bo'yicha plakatlar.
7. Adabiyotlar:

9– Laboratoriya ishi.

Ilashish muftasi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga transmissiyaning vazifasi va ularning xar xil sxemalarini tushuntirish. Ilashish muftasining zaruriyati va vazifasini o'rganish. Ilashish muftasining tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Ilashish muftasining zaruriyati va vazifasini o'rganish.
- b) Ilashish muftasining tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.
- v) Ilashish muftasi detallarining konstruksiyasini o'rganish.
- g) Ilashish muftasi yuritmasining konstruksiyasi va ishlash prinsipini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Avtomobilda ilashish muftasi qayerda joylashgan?
- b) Ilashish muftasi transmissiyada nima uchun kerak?
- v) Ilashish muftasi avtomobillarda qaysi xolatda qo'shilgan yoki qo'shilmagan bo'ladi.
- g) Ilashish muftasining asosiy detallarini ayting?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Transmissiyaning vazifasi va turlarini o'rganish.
- Ilashish muftasining zaruriyati va vazifasini o'rganish.
- Bir diskli ilashish muftasining tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.
- Ilashish muftasi yetaklovchi qismlarining konstruksiyalarni o'rganish.
- Gidravlik muftaning tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Elektromagnitli ilashish muftasining tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Ilashish muftasining siquvchi mexanizmi konstruksiyasini o'rganish.
- Markaziy diafragmali prujinaga ega bo'lgan bir diskli ilashish muftasining konstruksiyasini o'rganish.
- Burama tebranishlar so'ndirgichi konstruksiyasini o'rganish.
- Ikki diskli ilashish muftasining tuzilishi va ishlashini o'rganish;
- Ilashish muftasi yuritmasining vazifasi va ularning turlarini o'rganish.
- Gidravlik yuritmaning tuzilish, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganish.
- Mexanik yuritmaning tuzilishi va ishlashini o'rganish;
- Ilashish muftasining yuritmasidagi pnevmokuchaytirgichning tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.

- Ilashish muftasining elektrovakuum boshqaruvining tuzilishi va ishlashini o'rganish.

5. Xisobot mazmuni


1. Ilashish muftasining vazifasi. 2. Bir diskli mexanik yuritmalilashish muftasining sxemasini chizish.

3. Ilashish muftasining konstruksiyasi va ishlashini qisqacha yoritish.

4. Ilashish muftasining asosiy ko'rsatkichlarining qiyosiy jadvali.

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil markasi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Ilashish muftasining turi	QURUG',	QURUG',	QURUG',	QURUG',
2.	Yetaklanuvchi disk soni	1	2	2	1
3.	Siquvchi prujinaning soni	8	16	12	8
4.	Ilashish mufta yuritmasining turi	Gidrokuchaytirgichli, pnevmokuchaytirgichli mexanik	Gidro/mexanik	Gidro/mexanik	Gidro/mexanik
5.	Yuritmada kuchaytirgichlarning bor yo'qligi	BOR	bor	bor	yuq
6.	Gidravlik yuritmadagi suyuqlikning bosimining maksimal qiymati, MPa	1,0	1,8	1,8	0,8

BIR DISKLI FRIKTSION ILASHISH MUFTASI



- 1 - KOJUX
- 2 - SIQUVCHI DISK
- 3 - MAXOVIK
- 4 - ETAKLANUVCHI DISK
- 5 - SHARNIR
- 6 - PRUJINA
- 7 - AJRATISH RICHAGI
- 8 - AJRATISH MUFTASI
- 9 - AJRATISH VILKASI
- 10 - PEDAL
- 11 - QAYTARUVCHI PRUJINA
- 12 - TORTOI

Nazariy savollari

1. Ilashish muftasining vazifasini ayting.
2. Ilashish muftasining ishlash uslubi nimaga asoslangan?
3. Ilashish muftasining asosiy detallarin ayting?
4. Yetaklanuvchi disk qanday qismlardan tashkil topgan?
5. Ilashish muftasining yetaklovchi qismiga qanday detallar kiradi?
6. Burama tebranishlarni so'ndirgichining vazifasi nimadan iborat?
7. Burama tebranishlar nimani xisobiga so'ndiriladi?
8. Siquvchi podshipnik va ajratish richagi orasidagi tirqish nima uchun kerak?
9. Yetaklanuvchi disk gupchagiga nima uchun shlitsa yasalgan?
10. Avtomobil to'xtab, dvigatel ishlab turgan vaqtda ilashish muftasi qanday xolatda bo'ladi?
11. Ilashish mexanizmi yuritmasining pedali bosilganda kuch siquvchi diska qanday o'tadi?
12. Pedalning erkin yo'li nima uchun kerak?
13. Ilashish muftasining yuritmasining vazifasi nimadan iborat?
14. Ilashish muftasi yuritmasining turlarini ayting?
15. Elektromagnitli ilashish muftasi qanday avtomobillarga qo'yilgan?
16. Nima sababdan ayrim avtomobillarda friksion qoplama yaxshi emas, ariqchali qilib ishlangan?
17. Nima uchun ilashi muftasi yaxshi ajralmaydi?
18. Nima sababdan ilashish muftasi yaxshi qo'shilmaydi.
19. Qanday paytda ilashish muftasini ajratish lozim?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, ZIL, MAZ, KamAZ dvigatellarining qirqimi ko'rsatilgan stendlar.
3. Ilashish muftasi stendi(ZIL avtomobili).
4. Ilashish muftasi detallarining majmui.
5. Ilashish muftasi konstruksiyasini yorituvchi plakatlar majmui.
6. Adabiyotlar:

10– Laboratoriya ishi.

Uzatmalar va taqsimlash qutisi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga uzatmalar va taqsimlash qutilarining zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Uzatmalar va taqsimlash qutisining tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Uzatmalar va taqsimlash qutisining zaruriyati va vazifasini o‘rganish.
- b) Uzatmalar va taqsimlash qutisining tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
- v) Uzatmalar va taqsimlash qutisining konstruksiyalarini o‘rganish.
- g) Uzatmalar va taqsimlash qutisining boshqarish yuritmasining ishlashi va ularning konstruksiyalarin o‘rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Atvomobilda uzatmalar va taqsimlash qutisi qayerda joylashgan?
- b) Uzatmalar va taqsimlash qutisi transmissiyada nima uchun kerak?
- v) Uzatmalar qutisi necha pog‘onali bo‘lishi mumkin? Taqsimlash qutisichi?
- g) Uzatmalar qutisi nimalarni o‘zgartirib beradi?
- d) Uzatmalar qutisi necha valli bo‘lishi mumkin?
- ye) Oldi yetaklovchi va boshqariluvchi avtomobilda necha valli uzatmalar qutisi ishlatiladi.

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Uzatmalar qutisi va taqsimlash qutisining vazifasini o‘rganish.
- Uzatmalar qutisi va taqsimlash qutisining transmissiyada joylashishi.
- Uch valli uzatmalar qutisining tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Birlamchi, oraliq va ikkilamchi vallarning tuzilishi va va ularning o‘rnatilish joylarini o‘rganish.
- Uzatmalar qutisining xar bir pog‘onasining uzatish sonini aniqlashni o‘rganish.
- To‘g‘ri uzatmani qo‘shish jarayonini o‘rganish.
- Uzatmalar qutisining vallarida o‘rnatilgan qo‘zg‘aluvchan va qo‘zg‘almas shesternyalarini o‘rganish.
- Sinxronizatorning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
- Uzatmalarda qo‘shimcha uzatmalar qutisi (bo‘luvchi, demultiplikator) bo‘lgan konstruksiyani tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Ikki valli uzatmalar qutisining tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- ikki va uch valli uzatmalar qutisining bir-biridan farqini o‘rganish.
- Taqsimlash qutisining vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
- Taqsimlash qutilarining konstruksiyalarini o‘rganish.
- Uzatmalar qutisida boshqarish mexanizmining tuzilish va ishlashini o‘rganish.
- Taqsimlash qutisining boshqarish mexanizmining tuzilishi va ishlashini o‘rganish.


5. Xisobot mazmuni

1. Uzatmalar va taqsimlash qutilarining vazifalari.
2. Ikki va uch vali uzatmalar qutisining sxemasini chizish.
3. Ikki pog‘onali taqimlash qutisining sxemasini chizish.
4. Asosiy detallarning vazifasi.
4. Uzatmalar va taqsimlash qutisi asosiy parametrlarining qiyosiy jadvali.

№	Ko‘rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Uzatmalar qutisining	6	5	5	5-6

	pog'onalar soni				
2.	Uzatmalar qutisining vallar soni	2	3	3	2
3.	Sinxronizatorlar soni	2	У/И	У/И	2
4.	Sinxronizator bilan ulanadigan uzatmalar	Юкори узатмаларда	Юкори узатмаларда	Юкори узатмаларда	Юкори узатмаларда
5.	Doimiy ulangan juft shesternyalar soni	1	2	2	1
6.	Uzatmalar qutisining uzatish soni: I, II, I II, IV, V				
7.	Taqsimlash qutisida o'qlararo differensialning bor yo'qligi	бор	бор	бор	бор
8.	Taqsimlash qutisida o'qlararo differensialning bor yo'qligi	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q
9.	Taqsimlash qutisining uzatish soni: I pog'ona II pog'ona	2-6	2-6	2-6	2-6

KARDANLI UZATMANING SXEMASI



1 - UZATMALAR QUTISI

3 - 7 - KARDAN VALLARI

5 - SHLITSLI BIRIKMA

10 - RESSORALAR


2 - 6 - 8 - KARDANLI SHARNIRLAR

4 - ORALIQ TAYANCH

9 - ETAKCHI KO'PRIK

11 - RAMA

UCH POG'ONALI UZATMALAR QUTISINING SXEMASI



- 1 - ETAKLOVCHI VAL
- 3 - TISHLI MUFTA
- 4 - VILKA
- 2, 5, 6, 9, 11, 12, 13, 14 - TISHLI G'ILDIRAKLAR
- 7 - VILKA
- 8 - ETAKLANUVCHI VAL
- 10 - O'Q
- 15 - ORALIQ VAL
- 16 - KARTER

Nazariy savollari

1. Uzatmalar qutisining vazifasi nima?
2. Taqsimlash qutisining vazifasi nima?
3. Uzatmalar va taqsimlash qutilari transmissiyada qayerda joylashgan?
4. Uzatmalar qutisining uzatish soni nima? U nimani bildiradi.
5. Uch vali uzatmalar qutisining asosiy detallarini ayting?
6. Uzatmalar qutisida qanday vallar bor ularning nomlarini ayting?
7. Doimiy ishlab turuvchi shesternyalar valda qanday o'rnatilgan?
8. Xarakat yetaklovchi valdan yetaklanuvchi valga qaysi val orqali o'tadi?
9. Birlamchi valning tuzilishi va o'rnatilgan joyinin ayting?
10. Oraliq valning vazifasi va uning tuzilishini ayting?
11. Qaysi uzatishda ikkilamchi valning burovchi momenti kata?
12. Uzatmalar qutisining qaysi pog'onasida avtomobil eng katta tezlikka erishadi?
13. Uzatmalar qutisida bir vaqtda ikkita uzatma qo'shilsa nima bo'ladi?
14. Sinxronizatorning vazifasi nimadan iborat?
15. Sinxronizator qanday detallardan tashkil topgan?
16. Uzatmalar qutisining uzaytirgichi qanday vazifani bajaradi?
17. Sinxronizator uzatmalar qutisining qaysi valida o'rnatiladi?
18. Dvigatel ishlab turgan vaqtda ilashish muftasi qo'shilsa, shu paytda uzatmalar qutisi neytral vaziyatda qo'yilgan bo'lsa, uzatmalar qutisining qaysi vallari va shesternyalar xarakatda bo'ladi.
19. Uzatmalar qutisida to'g'ri uzatma qo'shilsa, aylanma xarakat va burovchi moment qanday o'zgaradi?
20. Ikki valli uzatmalar qutisida to'g'ri uzatma bormi? Sababini tushuntiring.
21. Bo'lgichning vazifasi nimadan iborat.
22. Demultiplikatorning vazifasi nimadan iborat?

23. Fiksatorning vazifasi nimadan iborat?
24. Qulfning vazifasi nimadan iborat?
25. Qaysi avtomobillarda taqsimlash qutisi ishlatiladi.
26. Ikki pog'onali taqsimlash qutisi qanday vallardan tashkil topgan?
27. Taqsimlash qutisini boshqarish yuritmasining tuzilishini ayting?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, ZIL, MAZ, VAZ avtomobillarining qirqimdagi uzatmalar qutisi stendi.
3. GAZ-66 va UAZ avtoombilining taqsimlash qutisi.
4. Uzatmalar va taqsimlash qutisi detallarining majmui.
5. Uzatmalar va taqsimlash qutisi konstruksiyasini yorituvchi plakatlar majmui.
6. Adabiyotlar:

11– Laboratoriya ishi.

Kardan uzatma.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga kardan uzatmaning zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Kardan uzatma tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Kardanli uzatmaning zaruriyati va vazifasini o'rganish.
- b) Kardanli uzatmaning tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- v) Burchak tezliklari bir xil bo'lgan va bir xil bo'lmagan kardan sharnirlari konstruksiyalarini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarining tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Kardan uzatmaning zaruriyatini tushuntiring?
- b) Nima uchun xarakat o'zgaruvchan burchak ostida uzatiladi?
- v) Nima uchun kardan sharnir ishlatiladi? Uning o'rniga boshqa birikma qo'ysa bo'lmasmidi.
- g) Xama avtomobillarda kardan uzatma bormi?
- d) Kardan uzatmaning asosiy detallarini ayting?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Kardan uzatmaning zaruriyati va vazifasini o'rganish;
- Kardan uzatmaning tuzilishi va ishlashini o'rganish;
- Kardan uzatmani transmissiyada joylashishini o'rganish;


- Burchak tezliklari bir xil bo'lmagan kardan sharnirlarining konstruksiyasini o'rganish;
- Burchak tezliklari bir xil bo'lgan kardan sharnirlarining konstruksiyasini o'rganish;
- Oraliq tayanchning zaruriyati va o'rnatilgan joylarini o'rganish;
- Kardan uzatmada shlitsali birikmaning zaruriyatini tushuntirish;
- Birk va elastik kardan sharnirlarining konstruksiyasini o'rganish;
- Oldi yetaklovchi va boshqariluvchi avtoombillarda o'rnatilgan, g'ildiraklar yuritmasidagi kardanli uzatmaning ishlashini o'rganish;
- Veys tipidagi kardan sharniri konstruksiyasini o'rganish;
- Birfild tipidagi kardan sharniri konstruksiyasini o'rganish;
- Tripod tipidagi kardan sharniri konstruksiyasini o'rganish;

5. Xisobot mazmuni

1. Kardan uzatmaning vazifasi.
2. Kardan uzatmaning soddalashgan sxemasini.
3. Kardan sharnirlarining kinematik sxemasi.
4. Kardan uzatmasining asosiy parametrlarining qiyosiy jadvali:

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Kardan sharnirlar turi	граната	крестовина	крестовина	граната
2.	Kardan sharnirlar soni	2	2-6	2	2
3.	Kardan vallar soni	2	3-4-7	3	2
4.	Oraliq tayanch podshipnikining bor yo'qligi	бор	бор	бор	бор

KARDANLI UZATMANING SXEMASI



- | | |
|------------------------|---------------------------------|
| 1 - UZATMALAR QUTISI | 2 - 6 - 8 - KARDANLI SHARNIRLAR |
| 3 - 7 - KARDAN VALLARI | 4 - ORALIQ TAYANCH |
| 5 - SHLITSLI BIRIKMA | 9 - ETAKCHI KO'PRIK |
| 10 - RESSORALAR | 11 - RAMA |

Nazariy savollari

1. Kardan uzatmaning vazifasini ayting?
2. Avtomobilning transmissiyada kardanli uzatma nima uchun kerak?
3. Kardan sharnirning vazifasini ayting?
4. Burchak tezliklari bir xil bo'lmagan kardan sharnirining asosiy qismlari nimalardan iborat?
5. Burchak tezliklari bir xil bo'lgan kardan sharnirining asosiy qismlari nimalardan iborat?
6. Nima uchun burchak tezliklari bir xil bo'lmagan kardan sharniri deyiladi?
7. Nima uchun burchak tezliklari bir xil bo'lgan kardan sharniri deyiladi?
8. Elastik kardan sharniri qanday xolatlarda qo'llaniladi?
9. Oraliq tayanch kardan uzatmada nima uchun qo'llaniladi?
10. Kardan uzatmada ishlashi birikma nima uchun qo'llaniladi?
11. Kardan uzatmada nima uchun ikkita sharnir qo'llaniladi?
12. Klassik kompanovkali avtomobillarda qanday kardan sharnirlari qo'yiladi?
13. Oldi yetaklovchi va boshqariluvchi avtomobillarda qanday kardan sharnirlari qo'llaniladi?
14. Yuqori o'tuvchanlikka ega bo'lgan avtomobillarda qanday kardan sharnirlari ishlatiladi?
15. Veys tipidagi kardan sharnirlari qayerlarda ishlatiladi?
16. Birfild tipidagi kardan sharnirlari qayerlarda ishlatiladi?
17. Burchak tezliklari bir xil bo'lmagan kardan uzatmalarda, burovchi momentni qanday burchak ostidauzatish mumkin?
18. Burchak tezliklari bir xil bo'lgan kardan uzatmalarda, burovchi momentni qanday burchak ostidauzatish mumkin?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, ZIL, MAZ avtomobillarining kardan uzatmasi.
4. Kardan uzatma detallarining majmui.
5. Kardan uzatma konstruksiyasini yorituvchi plakatlar majmui.
6. Adabiyotlar:

12– Laboratoriya ishi.

Asosiy uzatma.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga asosiy uzatmaning zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Asosiy uzatma tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Asosiy uzatmaning zaruriyati va vazifasini o'rganish.

- b) Asosiy uzatmaning tuzilishi va ishlashi.
- v) Asosiy uzatmaning konstruksiyasini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Transmissiyada asosiy uzatma nima uchun kerak?
- b) Agar asosiy uzatmaning uzatish soni birga teng bo'lsa, avtomobil qanday xarakatlanadi?
- v) Asosiy uzatmaning asosiy detallari nimalardan iborat?
- g) Asosiy uzatmaning uzatish soni nima uchun kerak?
- d) Nima uchun hozirgi paytda yengil va o'rta yuk ko'taradigan yuk avtomobillarida gipoidli asosiy uzatma ishlatiladi?


4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Asosiy uzatmaning zaruriyati;
- Asosiy uzatmaning vazifasi;
- Asosiy uzatmaning turlarini o'rganish;
- Asosiy uzatma sxemasi va ishlashini o'rganish;
- Yakka asosiy uzatmaning yetaklovchi va yetaklanuvchi shesternyalarining konstruksiyasini o'rganish;
- Gipoidli asosiy uzatmaning konstruksiyasini o'rganish. Uning afzalliklari va kamchiliklarini o'rganish.
- Chervyakli asosiy uzatmaning konstruksiyasini o'rganish. Uning afzalliklari va kamchiligi.
- Oldi yetaklovchi va boshqariluvchi avtomobilning yakka asosiy uzatma konstruksiyasini o'rganish.
- Qo'shaloq asosiy uzatmaning zaruriyatini talabalarga tushuntirish.
- Qo'shaloq asosiy uzatmali konstruksiyani o'rganish.
- Markazlashgan qo'shaloq asosiy uzatma konstruksiyasini o'rganish.
- Ikki qismga bo'lingan – ajratilgan asosiy uzatma konstruksiyasini o'rganish.

5. Xisobot mazmuni

1. Asosiy uzatmaning vazifasi.
2. Asosiy uzatma turlarining kinematik sxemalarini chizish.
3. Asosiy uzatmaning tuzilishini qisqacha ifodalash.
4. Asosiy uzatmaning asosiy parametrlarining qiyosiy jadvali:

YAKKA VA QO'SHALOQ ASOSIY UZATMALARNING SXEMASI



A) KONUSSIMON SHESTERNYALI

B) CHERVYAKLI

C) GIPOID

D) SILINDRIK

A) YAXLIT JOYLASHGAN ASOSIY UZATMA

B) IKKI QISMGA AJRALGAN ASOSIY UZATMA

1 - G'ILDIRAK UZATMALARI

2 - MARKAZIY UZATMA

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Asosiy uzatmaning turi	tishli	tishli	tishli	tishli
2.	Asosiy uzatmaning uzatish soni	3-4	5-7	5-7	3-4
3.	Yetakchi valning tayanchlari	oksial	oksial	oksial	oksial

Nazariy savollari

1. Asosiy uzatmaning vazifasini ayting?
2. Yakka asosiy uzatmaning turlarini ayting?
3. Qo'shaloq asosiy uzatmaning turlarini ayting?
4. Gipoid shesterniyali asosiy uzatmaning afzalliklari nimalardan iborat?
5. Qo'shaloq asosiy uzatma konstruksiyasini qo'yilishini asosiy sabablari nimalardan iborat?
6. Konussimon shesterniyali asosiy uzatmaning kamchiliklari nimalardan iborat?
7. Qo'shaloq asosiy uzatma konstruksiyasini qo'yilishini asosiy sabablari nimalan iborat?
8. Asosiy uzatmaning uzatish soni nimani bildiradi?
9. Yakka asosiy uzatma konstruksiyalarida tayanch tirkakqo'yilishining sababi nima?
10. Ajratilgan asosiy uzatma konstruksiyasining afzalligi nimada?
11. Qanday avtomobilda ajratilgan asosiy uzatma qo'llaniladi?

12. Ajratilgan asosiy uzatmada burovchi moment necha joyda ko'payadi?
13. Zamonaviy avtoombillarda nima uchun chervyakli asosiy uzatma qo'llanilmaydi?
14. Chervyakli asosiy uzatmaning avzalligi va kamchiligi nimadan iborat?
15. Oldi g'ildiraklari yetaklovchi va boshqariluvchi bo'lgan yengil avtomobillarda qanday asosiy uzatma qo'yilgan?
16. Konusli shesternyalar nima uchun spiral tishli qilib yasaladi?
17. Gipoid uzatma spiral uzatmadan nima bilan farq qiladi?
18. Oldi g'ildiraklari yetaklovchi va boshqariluvchi bo'lgan yengil avtoombillarda asosiy uzatmaning yetakchi shesternyasi qayerda joylashgan?
19. Yakka asosiy uzatmalar sxemasini chizish.
20. Qo'shaloq asosiy uzatmalar sxemasini chizing.
21. Nima uchun silindrik asosiy uzatmalarda katta uzatishlar sonini olish muumkin emas?
22. Yengil avtomobillarda asosiy uzatmaning uzatish soni qanday oraliqda bo'ladi?
23. Yuk avtomobillarda asosiy uzatmaning uzatish soni qanday oraliqda bo'ladi?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, ZIL, VAZ avtomobillarining stendi.
3. Asosiy uzatma detallari.
4. Asosiy uzatma konstruksiyasini yorituvchi plakatlar majmui.
5. Adabiyotlar:

13– Laboratoriya ishi.

Differenuial va yarim o'qlar.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:


Talabalarga differensial va yarimo'qlarning zaruriyati va ularning vazifalarini tushuntirish. Differensiallar va yarim o'qlarning tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Differensial va yarimo'qlarning zaruriyati va vazifasini o'rganish.
- b) Differensialni ishlash uslubini o'rganish.
- v) Differensialning turlarini o'rganish.
- g) G'ildiraklararo differensialning konstruksiyalarini o'rganish.
- d) O'qlararo differensialning konstruksiyalarini o'rganish.
- ye) Yarimo'q turlarini o'rganish.
- j) Yarimo'qlarning tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.
- z) To'liq, yarim va $\frac{3}{4}$ qismi yuksizlantirilgan yarimo'q konstruksiyalarini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Differensialning zaruriyatini tushuntiring?
- b) Avtomobilda differensial bo'lmasa nima bo'lardi?
- v) Differensialning kamchiligi nimadan iborat?
- g) Yarimo'qlar necha xil bo'ladi?
- d) Differensialning asosiy detallarini ayting?
- ye) Zamonaviy avtoombillarda asosan qanday turdagi differensial qo'llaniladi?



Rasm 1. Differensial:

- a – tuzilishi; b – to'g'ri chiziqli harakatlanishidagi ishlash holati;
v – burishdagi ishchi holati: 1 – korpus; 2 – yarim o'q shesternyalari;
3 – krestovina; 4 – satellit; 5 – bosh uzatmaning yetaklanuvchi shesternyasi;
6 – bosh uzatmaning yetakchi shesternyasi; 7 - yarim o'qlar

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Differensialning zaruriyati;
- Differensialning vazifasi;
- Tasviriy chizmada differensialning ishlash uslubini o'rganish.
- Differensialning sxemasini chizib, kinematikasini o'rganish.
- Differensiallarning turlari va ularning sxemalarini, ishlash prinsiplarini o'rganish.
- G'ildiraklararo simmetrik differensialning konstruksiyasini o'rganish.
- Differensial korpusi konstruksiyasini o'rganish.
- Ikki va to'rt satellitli differensialning konstruksiyasi va ularning o'rnatilgan joylarini o'rganish.
- O'qlararo nosimmetrik differensialning konstruksiyasi va ularni o'rnatilgan joylarini o'rganish.
- Ishqalanish yuqori bo'lgan differensialning vazifasi, tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Mushtchali yuqori ishqalanishga ishlaydigan differensial konstruksiyasini o'rganish.

- Differensialni muxosaralantirish.
- Yarimo‘qlarning vazifasi va tuzilishini o‘rganish.
- Yarimo‘qlarning turlarini o‘rganish.

5. Xisobot mazmuni

1. Differensial va yarimo‘qlarning vazifasi.
2. Simmetrik va nosimmetrik differensialning sxemasi.
3. Yarimo‘qlarning sxemalari.
4. Differensial va yarimo‘qlarning asosiy parametrlarining qiyosiy jadvali:

№	Ko‘rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Differensial turi	planetar	planetar	planetar	planetar
2.	Satellitlar soni	2	4	4	2
3.	Yarimo‘qlar turi	Yarim yuklangan	Yarim yuklangan	Yarim yuklangan	Yarim yuklangan
4.	Differensialning uzatish soni	2-3	2-3	2-3	2-3
5.	Muxosaralantirish qurilma bor yo‘qligi	bor	bor	bor	bor

Nazariy savollari

1. Differensialning zaruriyatini ayting?
2. Differensialning vazifasini ayting?
3. Yarimo‘qlarning vazifasini ayting?
4. Differensiallar kinematikasi bo‘yicha necha ZIL bo‘ladi?
5. Nima uchun simmetrik differensial deyiladi?
6. Nima uchun nosimmetrik differensial deyiladi?
7. Simmetrik differensialning sxemasini chizing.
8. Simmetrik differensial qanday elementlardan tashkil topgan?
9. Differensial korpusiga nima maxkamlangan.
10. Ikki satellitli differensiallar qaysi avtomobilga qo‘yilgan?
11. 4 ta satellitli differensiallar qanday avtomobillarga qo‘yilgan.
12. Qanday avtomobillarda differensial korpusi ikkiga bo‘lingan?
13. Differensialning kamchiligi nimalardan iborat?
14. Differensial kamchiliklarini qanday qilib yo‘qotsa bo‘ladi?
15. Nima sababdan yuqori o‘tuvchanlikka ega bo‘lgan avtomobillarda o‘qlararo differensial qo‘yiladi?
16. O‘qlararo nosimmetrik differensial qaysi xollarda qo‘llaniladi?
17. Asosiy uzatmadan uzatilayotgan burovchi moment differensialning qaysi detallari orqali yarimo‘qlarga uzatiladi?
18. Qaysi avtomobillarda bir paytda g‘ildiraklararo va o‘qlararo differensial ishlatiladi?
19. Yarimo‘qlarning turlarini ayting?
20. Xar xil turdagi yarimo‘qlarning bir-biridan farqi?
21. Yarimo‘q, yarimo‘q shesternyasi xamda g‘ildirakning gupchagi bilan qanday birlashtirilgin?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi, qirqimda UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, ZIL, VAZ avtomobillarining stendi.
3. Differensial va yarimo'qlarning detallari.
4. Differensial va yarimo'qlarni yorituvchi plakatlar majmui.
5. Adabiyotlar:

14– Laboratoriya ishi

Osmalar.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga osmaning zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Osmaning tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- a) Osmaning zaruriyati va vazifasini o'rganish.
- b) Osmaning soddalashgan sxemasi orqali uning tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- v) Osma uch qismdan tashkil topgan va ularning vazifalarini o'rganish.
- g) Elastik qismlarning asosiy turlari va ishlashini o'rganish.
- d) So'ndiruvchi qismlarning vazifasi tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- ye) Mustaqil va nomustaqil osmalrning vazifalarini o'rganish.
- j) Mustaqil va nomustaqil osmalrning konstruksiyalarini o'rganish.
- z) Ko'ndalang tung'unlik stabilizatorining vazifasi va ishlashini o'rganish.


3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

- a) Osmaning vazifasi nimadan iborat?
- b) Osma necha qismdan iborat?
- v) Osmaning elastik qismlariga nimalar kiradi?
- g) Amortizator nima uchun kerak?
- d) Mustaqil va nomustaqil osmani ta'riflang?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Osmaning zaruriyati va vazifasini o'rganish.
- Osmaning soddalashgan sxemasi orqali tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Osmalarni avtomobilda joylashishini o'rganish.
- Osma uch qismdan tashkil topgani va ularning vazifalarini o'rganish.
- Elastik qismlarning tuzilishi, konstruksiyalarini o'rganish.
- So'ndiruvchi qism bir va ikki trubali amortizatorlarning vazifasi, tuzilishi, konstruksiyasi va ishlash prinsipini o'rganish.
- Osmalarning yo'naltiruvchi qismining vazifasi va uning turlarini o'rganish.
- Mustaqil osmalar konstruksiyasining tuzilishi va ishlashini o'rganish.

- a) Ikki richagli mustaqil osma konstruksiyalarini o'rganish.
- b) Makferson osmasining konstruksiyasini o'rganish.
- v) Aktiv osmalar konstruksiyasini o'rganish.
- Nomustaqil osmalar konstruksiyasining tuzilishi va ishlashini o'rganish:
- a) Pnevmatik nomustaqil osmalar konstruksiyalarini o'rganish.
- b) Balansirli osmalar konstruksiyalarini o'rganish.
- Ko'ndalang turg'unlik stabilizatorining konstruksiyasi va ishlashini o'rganish.



5.

Xisobot mazmuni

1. Osmaning vazifasi. Mustaqil va nomustaqil osmalarning vazifasi.
2. Osmaning prinsipial sxemasi.
3. Mustaqil va nomustaqil osmalar sxemasi.
4. Osma detallarining vazifalari.
5. Osmaning asosiy parametrlarining qiyosiy jadvali:

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Osmaning turi: - oldi ko'prik - orqa ko'prik	Mex/gidro			Mex/gidro
2.	Osmaning so'ndiruvchi qismi: - oldi ko'prik - orqa ko'prik	-Amortiz - amortiz+pruj	Resor Resor	Resor Resor	-Amortiz - amortiz+pruj
3.	Osmaning yo'naltiruvchi qismi: - oldi ko'prik - orqa ko'prik				
4.	Elastik qismlar	prujina	Resor	Resor	prujina
5.	Ko'ndalang stabilizatorning bor	Reaktiv	Yo'q	Yo'q	Reaktiv

yo'qligi; o'rnatish joyi	tyaga			tyaga
--------------------------	-------	--	--	-------

Nazariy savollari

1. Osmaning vazifasi nimadan iborat?
2. Osma necha qismdan tashkil topgan?
3. Elastik qismning vazifasini ayting?
4. So'ndiruvchi qismning vazifasini ayting?
5. Yo'naltiruvchi qismning vazifasini ayting?
6. Mustaqil osma deb nimaga aytiladi?
7. Nomustaqil osma deb nimaga aytiladi?
8. Ikki richagli yo'naltiruvchi element qaysi avtomobillarda qo'llaniladi?
9. Listli resorli elastik element qaysi avtomobillarda qo'llaniladi?
10. Neksiya avtomobilining orqa osmasining nomini ayting?
11. Torsionli elastik element qaysi avtomobilning osmalarida qo'yilgan?
12. Qanday kompanovkali avtomobillarda Makferson tipidagi osma qo'yiladi va nima uchun?
13. Makferson osmasining afzalliklari?
14. Amortizatorning vazifasi nimadan iborat?
15. Nimani xisobiga amortizator tebranishni so'ndiradi?
16. Ko'ndalang turg'unlik stabilizatori qanday vazifani bajaradi?
17. Ko'ndalang turg'unlik stabilizatori nimani xisobiga ko'ndalangiga bo'ladigan burchak tebranishlarni so'ndiradi?
18. Agar avtomobil osmasida yo'naltiruvchi qism bo'lmasa, avtomobil qanday xarakatlanadi?
19. Nima uchun yuk avtomobillarda mustaqil osma qo'yilmaydi?
20. Osmaning elastik qismi ressora o'rniga prujina qo'yilsa, qanday qo'shimcha detallar paydo bo'ladi va nima uchun?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi, qirqimda UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, ZIL, VAZ avtomobillarining stendi.
3. Osma konstruksiyasining detallari.
4. Osma konstruksiyalarini yorituvchi plakatlar majmui.
5. Adabiyotlar:

15– Laboratoriya ishi.

Rama. Kuzov. Ko'prik, g'ildirak va shinalar.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:


Talabalarga Rama, kuzov, ko'priklar, g'ildirak va shinalarning zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Rama, kuzov, ko'priklar, g'ildirak va shinalarning tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iborat.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- Ramaning vazifasini o'rganish.
- Rama konstruksiyasi turlarini o'rganish.
- Ramaning tuzilishini o'rganish.
- Zamonaviy avtomobillarga qo'yilgan ramalarning konstruksiyalarini o'rganish.
- Kuzovlarning vazifalarini o'rganish.
- Yengil avtomobil kuzov konstruksiyalari turlari.
- Yengil avtomobil kuzovlarining konstruksiyalarining tuzilishini o'rganish.
- Yuk avtomobillarining kuzovlarining turlari va konstruksiyalarini o'rganish.
- Avtobus kuzovlarining turlari, tuzilishi va konstruksiyalarini o'rganish.
- Ko'priklarning vazifalarini o'rganish.
- Ko'priklarning turlari va ularning konstruksiyalarini o'rganish.
- G'ildirakning vazifasini o'rganish.
- G'ildirakning turlari, tuzilishi va uning konstruksiyasini o'rganish.
- Shinaning vazifasi, tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Kamerali va kamerasiz shinalarni o'rganish.
- Kamerali shinaning tuzilishini o'rganish.
- Kamerasiz shinaning tuzilishini o'rganish.
- Kamerali va kamerasiz shinalarning farqini o'rganish.
- Kamera ventillarining turlari, ularning tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Shinalar vazifasi, profilining ko'rinishi, o'lchamlari, konstruksiyasi va germetikligini ta'minlash usuli bilan turlarga bo'linishini ayrim-ayrim o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

1. Avtomobilda rama nima uchun kerak?
2. Qanday avtomobillarda rama bo'lmaydi?
3. Kuzovning vazifasi nima?
4. yuk va yengil avtomobil kuzovlarining asosiy farqi nimada?
5. Kuzov turlarini ayting?
6. ko'priknining vazifasi nimadan iborat.
7. Qayeday ko'priklarning turlarini bilasiz?
8. Avtomobilda nima uchun g'ildirak kerak?
9. Avtomobilda qanday g'ildiraklar bo'ladi?
10. Pnevmatik shinaning vazifasi nima?
11. Kamerali va kamerasiz shinalarni tushuntiring?



1-rasm. Neksiya avtomobilining old osmasi

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

1. Rama bo'yicha
 - Ramaning vazifasini o'rganish.
 - Ramaning tuzilishini o'rganish.
 - Ramaning turlari, ularning konstruksiyalarini o'rganish.
 - Avtoombillarga o'rnatilgan ramalar konstruksiyasining tuzilishini o'rganish.
 - Shatakka olish moslamasining tuzilishini o'rganish.
2. Kuzov bo'yicha
 - Kuzovning vazifasini o'rganish.
 - Yengil avtomobillarda qo'llaniladigan kuzovlarning turlarini o'rganish.
 - Yengil avtoombil kuzovining umumiy tuzilishini o'rganish.
 - Sedan, Universal, Xupe, Kombi(Xetchbek), limuzin, kabriolet kabi kuzovlarning bir-biridan farqini o'rganish.
 - Neksiya, tiko, matiz avtomobillarining kuzovi qanday tipda?
 - Yuk avtomobillari kuzovining vazifasini o'rganish.
 - Avtobus kuzovlarining vazifasi.
 - Avtobus kuzovining turlari.
 - Sinchsimon qobiqli, yuklamani to'la qabul qiluvchi avtobus kuzovining umumiy tuzilishini o'rganish.
 - Zamonaviy ISUZU, PAZ, Mercedes tipidagi avtobuslar kuzovlarining bir-biridan farqi nimada?
 - Kuzovni shamollatish, isitish va konditsiyalash qurilmalarini o'rganish:
- a) Neksiya avtoombilida
- b) GAZ 3110 va PAZ, ISUZU avtobuslarida
- v) MAZ 5335 yuk avtomobilining kabinasida.
3. Ko'priklar bo'yicha:
 - Ko'priklarning vazifasini o'rganish
 - Ko'priklarning turlarini o'rganish

- Ikki qismga ajraladigan yetakchit ko‘prikning konstruksiyasining tuzilishini o‘rganish.
- Bo‘linmaydigan yetakchi ko‘prik konstruksiyasini o‘rganish.
- Quyma cho‘yandan quyish usuli bilan tayyorlangan qismlarga ajralmaydigan yetakchi ko‘prik konstruksiyasini o‘rganish.
- Boshqariluvchi ko‘prik konstruksiyasini o‘rganish
- Aralashgan turdagi ko‘prik konstruksiyasini o‘rganish.
- Ko‘tarib turuvchi ko‘prik konstruksiyasini o‘rganish.

4. G‘ildirak va shinalar bo‘yicha:

- G‘ildirakning vazifasini o‘rganish
- Vazifasiga ko‘ra g‘ildiraklarning turlarini o‘rganish
- Diskli g‘ildiraklarning tuzilishini o‘rganish
- Disksiz g‘ildiraklarning tuzilishini o‘rganish
- Shinaning vazifasini o‘rganish
- Shinaning turlarini o‘rganish
- Kamerali shinning tuzilishini o‘rganish
- Kameronasiz shinning tuzilishini o‘rganish
- Kamerali va kameronasiz shinalarning bir-biridan farqini bilish
- Shinalar vazifasi, profilining ko‘rinishi, o‘lchamlari, konstruksiyasi va germetikligini ta‘minlash usuli bilan turlarga bo‘linishini o‘rganish:

a) vazifasi bo‘yicha shinalar yengil va yuk avtombillari uchun

b) Shina profilining ko‘rinishi bo‘yicha:

keng profili, past profilli, o‘ta past profilli, arkasimon va ----- konstruksiyalarini o‘rganish

v) diogonal va radial shinalarning konstruksiyalarini o‘rganish

g) shinalarning o‘lchamlari, belgilanishlarini bilish.

5. Xisobot mazmuni

1. Ramaning vazifasi.
2. Kuzovning vazifasi.
3. Ko‘priklarning vazifasi.
4. G‘ildirak va shinalar vazifasi.
5. Avtomobil ramasini konstruksiyasini tuzilishini qisqacha yoritish.
6. Kuzov konstruksiyasining tuzilishini qisqacha yoritish.
7. Ko‘prik konstruksiyasining tuzilishini qisqacha yoritish.
8. G‘ildirak va shinalar sxemalari.

5. Rama, kuzov, ko‘prik, g‘ildirak va shinalarning asosiy parametrlarining qiyosiy jadvali:

№	Ko‘rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Ramaning turi yoki kuzov turi	Sedan	Lonjeron tipida	Lonjeron tipida	Sedan
2.	Ko‘prikning turi: - oldi - orqa	osma	Etaklanuvchi etaklovchi	Etaklanuvchi etaklovchi	osma

3.	G'ildirak turi: - oldi - orqa	Etaklovchi Etaklanuvchi	Etaklanuvchi etaklovchi	Etaklanuvchi etaklovchi	Etaklovchi Etaklanuvchi
4.	Shinaning turi: - kamerali - kamerasis	kamerasiz	kamerali	kamerali	kamerasiz
5.	Shina o'lchami	170/65-R13	500/70-32	500/70-32	170/65-R13
6.	Shina bosimi: - oldi, MPa - orqa, MPa	0,19 0,22	0,4 0,5	0,4 0,5	0,18 0,2

Nazariy savollari

1. Ramaning vazifasi nimadan iborat?
2. Ramaning turlarini ayting?
3. ISUZU, ZIL, MAZ, KamAZ avtomobillarida qanday tipdagi ramalar qo'yilgan?
4. Qaysi turdagi ramalar yuk avtomobillarida ko'proq ishlatiladi?
5. Ramaning zaruriy mustaxkamligiga qanday erishiladi?
6. Nima uchun lonjeronlar ko'ndalang va bo'ylama yo'nalishlarda egik xolda tayyorlanadi?
7. Kuzovning vazifasini ayting? Yengil avtoombil kuzovlari turlarini ayting?
8. Avtobus kuzovlarining turlarini ayting.
9. Yengil avtomobil kuzovining asosiy qismi nimalardan iborat?
10. Quyidagi avtomobillarda qaysi turdagi kuzov qo'llanilgan: VAZ, Volga, Neksiya, Tiko, Matiz, Lasetti, ISUZU.
11. Ko'priklarning vazifasi nimadan iborat.
12. Ko'priklarning turlarini ayting.
13. Boshqariluvchi oldingi ko'priknining vazifasi nima?
14. Ko'tarib yuruvchi ko'priklar qanday avtomobillarda qo'llaniladi? U nima uchun kerak?
15. Yuqori o'tuvchanlikka ega bo'lgan avtomobillarda qanday ko'priklar ishlatiladi?
16. G'ildipakning vazifasi nima?
17. G'ildiraklar vazifasiga ko'ra yecha turga bo'linadi.
18. Kamerali shinalar qanday elementlardan tashkil topgan.
19. Diskli va disksiz g'ildiraklarning farqi nimada?
20. G'ildirak qanday elementlardan tashkil topgan?
21. Qo'shaloq g'ildiraklar qaysi avtomobilda ishlatiladi?
22. Shinaning vazifasini tushuntiring.
23. Kamerali va kamerasis shinalarning farqi nimalardan iborat?
24. Yengil avtomobillarni shinalarining bosimi vandanay oraliqda?
25. Shina profilining ko'rinishi bo'yicha necha xil bshladi?
26. Oddiy profilli shinalarning o'lchamlarini tushuntiring.
27. Keng profilli shinalarda N/V qiymati qancha? Qanday avtomobillarda ishlatiladi?
28. Radial va diogonal shinalarning farqi nimada?
29. Bosim rostlanuvchi shinalar qanday avtomobillarda qo'llaniladi.
30. G'ildirak to'g'inlarining turlarini ayting.

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakatlanuvchi, qirqimda UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, VAZ avtomobillarining orqa oldi ko'priklari.
3. Shina stendi.
4. Plakatlar majmui.
5. Adabiyotlar:

16– Laboratoriya ishi.

Avtomobilning rul boshqarmasi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko'zlangan maqsad:

Talabalarga rul boshqarmasining zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Rul boshqarmasining tuzilishi ishlash prinsipi bilan tanishtirish. Rul mexanizmi, yuritmasi va rul kuchaytirgichlarning vazifasi, tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o'rganishdan iboratdir.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- Rul boshqarmasining vazifasini o'rganish.
- Avtomobilni burish usullarini o'rganish.
- Rul boshqarmasining umumiy tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish.
- Rul mexanizmining turlarini o'rganish.
- Rul mexanizmining vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipini xamda ularning konstruksiyalarini o'rganish.
- Rul yuritmasining vazifasi, turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi xamda rul yuritmasi konstruksiyasini o'rganish.
- Rul kuchaytirgichlari vazifasi. Ularni joylashuvi. Ularning tuzilishi va ishlashi.
- Kuchaytirgich qismlarining bir-biriga nisbatan joylashuvi va ularning konstruksiyasini o'rganish.
- Pnevmatik kuchaytirgichlarning vazifasi, tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Boshqariluvchi g'ildirakni stabillash jarayonini o'rganish. Stabillashni amalga oshirish yo'llarini o'rganish.
- Xavfsizligi oshirilgan rul boshqarmasining tuzilishi va ishlashini o'rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

1. Avtomobilda rul boshqarmasi nima uchun kerak?
2. Rul boshqarmasi qanday qismlardan tashkil topgan?
3. Avtomobilning boshqariluvchi g'ildiraklarini burish usullarini ayting?
4. burilish jarayonida ichki va tashqi g'ildiraklar qanday burchakka buriladi? Nima uchun?
5. Avtomobilning burilish radiusi qancha kichik bo'lsa yaxshimi? Nima uchun?
6. Rul boshqarmasining asosiy tashkil etuvchilarini ayting?


7. Rul boshqarmasida kuchaytirgich nima uchun kerak?
8. Rul mexanizmining uzatish soni nimani bildiradi?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Rul boshqarmasining zaruriyatini o‘rganish.
- Avtoombilni burish usullarini sxemada o‘rganish.
- G‘ildiraklarning burilish burchaklari orasilagi bog‘lanish jarayonini o‘rganish.
- Avtomobilning minimal burilish radiusini aniqlashni o‘rganish.
- Boshqariluvchi g‘ildiraklarni stabillash jarayonini o‘rganish.
- Rul boshqarmasining umumiy tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Rul mexanizmining vazifasini o‘rganish.
- Rul mexanizmining turlari, tuzilishi, ishlash prinsipini o‘rganish.
- Globoidal-chervyak-rolik tipidagi rul mexanizmining konstruksiyasini o‘rganish.
- Vint-gayka-sektor tipidagi rul mexanizmining konstruksiyasini o‘rganish.
- Silindirik-chervyak-yonaki sektor tipidagi rul mexanizmini o‘rganish.
- Shesternya-reyka tipidagi rul mexanizmining konstruksiyasini o‘rganish.
- Rul yuritmasining vazifasini o‘rganish.
- Rul yuritmasining detallarini o‘rganish.
- Rul trapetsiyasining konstruksiyasini o‘rganish.
- Nomustaqil osmalarda rul yuritmasining tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Mustaqil osmalarda rul yuritmasining tuzilishi, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Rul tortqilarida qo‘llaniladigan sharchali barmoqning tuzilishi, ishlashi, turlari va ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Rul kolonkasi va rul chambaragikonstruksiyasini o‘rganish.
- Xavfsizligi oshirilgan rul mexanizmi vazifasi va ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Rul yuritmasi kuchaytirgichining vazifasini o‘rganish.
- Kuchaytirgichlar qanday qismlardan tashkil topgani va ularning vazifalarini o‘rganish.
- Rul yuritmasidagi gidrokuchaytirgichning tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
- Rul kuchaytirgichlarida “sezgirlik” va “kuzatuvchanlik” qanday amalga oshirilishini o‘rganish.
- Kuchaytirgich qismlarining bir-biriga nisbatan joylashuvini o‘rganish.
- Kuchaytirgichning xamma qismlari bir joyda joylashgan konstruksiyalarining tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Rul mexanizmi aloxida, taqsimlagich va kuch silindr bir agregatda joylashgan konstruksiyalarning tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Rul mexanizmi va taqsimlagich bir agregatda, kuch silindr ayrim joylashgan konstruksiyalarning tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Xamma qismlari (rul mexanizmi, taqsimlagich, kuch silindr) ayrim joylashgan konstruksiyalarning tuzilishi va ishlashini o‘rganish.

- Pnevmatik kuchaytirgichlarning tashkil etuvchi qismlarini o'rganish.
- Ikki tomonlama xarakterlanuvchi ishchi silindrning tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Xavo taqsimlagichning tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- O'zini-o'zi boshqarib boruvchi richagli boshqarish sistemasining tuzilishi va ishlashini o'rganish.
- Qo'shimcha pnevmatik qurilmalar konstruksiyalarini o'rganish.

RUL BOSHQARMASINING SXEMASI



- 1 - RUL CHAMBARAGI
- 2 - VAL
- 3 - CHERVYAK
- 4 - SEKTOR
- 5 - SOSHKA
- 6 - BO'YLAMA TORTQI
- 7 - RICHAG
- 8 - SHKVOREN
- 9 - 12 - RICHAGLAR
- 10 - KO'NDALANG TORTQI
- 11 - BALKKA
- 13 - SAPFA

5. Xisobot mazmuni

1. Rul boshqarmasi va uning tashkil etuvchi qismlarining vazifasi.
2. Rul boshqarmasining sxemasi.
3. Rul yuritmasidagi gidrokuchaytirgich sxemasi.
4. Kuchaytirgich qismlarining bir-biriga nisbatan joylashuvining sxemalari
5. Rul boshqarmasining asosiy parametrlarini qiyosiy jadvali

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Rul mexanizmining turi	Chervyak/reyka	Chervyak/reyka	Chervyak/reyka	Chervyak/reyka
2.	Rul mexanizmining uzatish soni	15-20/1	20-36/1	20-36/1	15-20/1
3.	Rul trapetsiyaning turi	Orqa tomonga qaratilgan	Orqa tomonga qaratilgan	Orqa tomonga qaratilgan	Orqa tomonga qaratilgan
4.	G'ildiraklarning burilish burchaklari:	32-45	32-45	32-45	32-45
		30-37	30-37	30-37	30-37

	- ichki g'ildirak, grad - tashqi g'ildirak, grad				
5.	Rul chamberagining diametri, mm	450	700	700	400
6.	Rul chamberagining maksimal bir tomonga burilish gradusi	540	1080	1080	540
7.	Kuchaytirgich qismlarining bir-biriga nisbatan joylashuvi	Agregat/bulak	Agregat/bulak	Agregat/bulak	Agregat/bulak
8.	Gidrokuchaytirgich nasosining xosil qilgan maksimal bosimi, Mpa	0,1	0,6	0,6	0,1
9.	Minimal burilish radiusi	20	25	25	20

Nazariy savollari

1. Rul boshqarmasining zaruriyati nimadan iborat?
2. Rul boshqarmasining vazifasi va asosiy qismlari.
3. Avtomobilni burish qanday usullar bilan amalga oshiriladi.
4. G'ildiraklarning burilish burchaklari orasidagi bog'lanish ifodasini yozing?
5. Avtomobilning burilish radiusi qanday aniqlanadi?
6. Neksiya, Matiz, Lasetti, Tiko va ISUZU larning minimal radiuslari necha metr?
7. Rul trapetsiyasining vazifasini ayting?
8. Nima uchun rul yuritmasining asosini to'rtburchak emas, balki trapetsiya tashkil etadi?
9. Nima uchun boshqariluvchi g'ildiraklar xar xil burchakka burilishi lozim?
10. Rul mexanizmining vazifasi nima?
11. Rul mexanizmining uzatish soni deb nimaga aytiladi?
12. Rul mexanizmining uzatish soni nimani bildiradi?
13. Yengil avtoombillar rul mexanizmining uzatish soni qanday oraliqda? Yuk avtomobillarida-chi?
14. Rul yuritmasining uzatish soni nimani bildiradi?
15. Boshqariluvchi g'ildiraklarni stabillash deb nimaga aytiladi?
16. Shkvorenning ko'ndalang qiyalanishi tufayli sodir bo'luvchi stabillash jarayonini tushuntiring.
17. Shkvorenning bo'ylama tekislikdagi qiyaligi natijasida xosil bo'luvchi stabillash jarayonini tushuntiring.
18. Rul mexanizmining turlarini ayting.

19. Rul mexanizmining uzatish soni katta bo'lgan sari, avtomobilni boshqarishni qanday bo'ladi?
20. Rul trapetsiyasi nimalardan tashkil topgan?
21. Qaysi avtoombillarning rul boshqarmasida kardanli uzatma ishlatiladi va uni nimani aylantiradi?
22. Qaysi avtomollarda globoidal chervyak tipidagi rul mexanizmi ishlatiladi?
23. Bo'ylama rul tortqisi sharnirining prujinasi nima uchun xizmat qiladi?
24. Nima uchun rul mexanizmi neytral xolatda bo'lganda tirqish eng kichik bo'lishi kerak?
25. Uzatmalar soni o'zgaruvchan bo'lgan rul mexanizmi qanday maqsadlarda qo'llaniladi.
26. "Vint-gayka-sektor" tipidagi rul mexanizmining boshqa rul mexanizmlaridan nima farqi bor.
27. Vint-gayka birikmasidagi ishqalanishni rul mexanizmining qaysi detallari kamaytirib beradi?
28. Reyka-shesternya tipidagi rul mexanizmining afzalliklari nimadan iborat.
29. Kuchaytirgichning vazifasi nimadan iborat?
30. Rul kuchaytirgichi qanday qismlardan tashkil topgan?
31. Rul kuchaytirgichi bor avtomobilni burishda, xaydovchining ishi nimaga sarf bo'ladi?
32. Kuchaytirgich qismlarining bir-biriga nisbatan joylashuvini tushuntiring?
33. Rul kuchaytirgichning sezgirligi qanday amalga oshiriladi.
34. Nima uchun rul yuritmasining tortqilari sharchasi barmoqlar yordamida bog'lanadi?
35. Avtomobil chapga burilganda, qaysi g'ildirak katta burchakka buriladi?
36. Ko'ndalang tortqi uchlaridagi rezba nima uchun qilingan?
37. Hidrokuchaytirgich nasosining maksimal bosimi qancha?
38. Boshqariluvchi g'ildiraklarning o'z o'zidan burilib ketmasligi uchun taqsimlagichda nima o'rnatilgan?
39. Kuchaytirgich ishlamay qolganda avtomobilni boshqarish mumkinmi? Qanday qilib tushuntiring.
40. "Xavfsiz" rul boshqarmasining vazifasini va ularning turlarini ayting.

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. Xarakterlanuvchi, qirqimda UAZ avtomobili.
2. Neksiya, GAZ, VAZ, ZIL, MAZ, KrAZ tipidagi avtomobillarining rul boshqarmasi stendi..
3. KamAZ avtoombilining elektrlashtirilgan rul boshqarmasi stendi.
4. Rul boshqarmasining asbob-anjomlar majmui.
5. Rul boshqarmasi konstruksiyalarini ko'rsatuvchi plakatlar majmui.
6. Rul boshqarmasining animatsiyasi.
7. Adabiyotlar:

17– Laboratoriya ishi.

Tormoz boshqarmasi.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko‘zlangan maqsad:

Talabalarga tormoz boshqarmasining zaruriyati va vazifasini tushuntirish. Tormoz boshqarmasining umumiy tuzilish va ishlash prinsipi bilan tanishish. Tormoz mexanizmi va yuritmasining vazifasi, tuzilish, ishlashi va ularning konstruksiyalarini o‘rganish.

2. Laboratoriya ishining xajmi.

- Tormoz boshqarmasining vazifasi.
- Tormoz tizimlarining turlari va ularning vazifalari.
- Tormoz mexanizmining vazifasi, turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi xamda ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Gidravlik tormoz yuritmasining vazifasi, turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi xamda ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Tormoz yuritmasining kuchaytirgichlarining vazifasi, turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi xamda ularning konstruksiyasi.
- Pnevmatik tormoz yuritmaning vazifasi, turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi, xamda ularning konstruksiyalarinio‘rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.


1. Tormoz boshqarmasi nima uchun kerak?
2. Avtomobil tormozlanganda qanday energiyani yengadi?
3. Avtomobilni tormozlash nimani xisobiga amalga oshiriladi?
4. Avtomobilni xarakatini sekinlatadigan qanday qarshiliklar bor?
5. Tormoz boshqarmasi necha qismdan tashkil topgan?
6. Avtomobilga qo‘yilgan tormoz tizimlarini ayting.
7. Yuqoridan pastga tushayotgan avtomobilni to‘xtatish nima uchun qiyin?
8. Avtomobilni tormozlash bu yaxshi jarayonmi? Nima sababdan.
9. Tormoz boshqarmasida tormoz yuritmasi nima uchun kerak?
10. Tormoz mexanizmlar avtomobilda qayerga qo‘yilgan?

4. Laboratoriya ishini bajarish tartibi

- Tormoz boshqarmasining vazifasi.
- Tormoz boshqarmasining qismlari.
- Tormoz tizimlarining turlari va ularning vazifalari.
- Tormoz mexanizmlarining turlari va ularning vazifalari.
- Tormoz mexanizmlari, yuritmalari va boshqarish organlarning umumiy tuzilishi va joylashishini o‘rganish.
- Tormoz mexanizmlari baxolash mezonlarini o‘rganish.

- Barabanli tormoz mexanizmlari kolodkalar tayanchining joylashgan joyiga qarab va keltirilgan kuchlarning xarakterioa qarab turlarga bo‘linishini sxemalar orqali o‘rganish.
- To‘xtatib turish tormoz tizimining vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipi, shuningdek ularning konstruksiyalarin o‘rganish.
- To‘xtatib turish toromzining mexanik yuritmasining konstruksiyasini o‘rganish.
- Tormoz yuritmasi, vazifasi va turlarini o‘rganish.
- Hidravlik tormoz yuritmasining tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
- Hidravlik tormoz yuritmasining elementlari konstruksiyasini o‘rganish.
- Asosiy tormoz silindri, g‘ildirak silindrlari konstruksiyalarini o‘rganish.
- Tormoz kuchlari rostlagichining vazifasi, turlari, tuzilishi va ishlash prinsipi xamda ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Tormoz kuchaytirgichning vazifasi. Hidravlik tormoz yuritmasining kuchaytirgichlarining tuzilishi, ishlash prinsipi shuningdek ularning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Pnevmatik tormoz yuritmasining vazifasi va uning gidravlmk tormoz yuritmasiga nisbatan afzalligi va kamchiliklari.
- Pnevmatik yuritmani ta‘minlovchi qismlarning vazifalarini o‘rganish.
- Pnevmatik yuritmani tormoz tarmog‘ining soddalashgan sxemasini o‘rganish.
- Kuzatish mexanizmlari to‘g‘ri ishlovchi tormoz kranining sxemasini tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Kuzatish mexanizmlari teskari ishlovchi tormoz krani sxemasining tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
- Ishchi tormoz tizimining konstruksiyasini o‘rganish:
 - a) ikki seksiyali tormoz kranining konstruksiyasi tuzilishi va ishlashini o‘rganish;
 - b) bosimni cheklovchi klapan vazifasi, uning konstruksiyasi tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
 - v) tormoz kuchlari rostlagichlari konstruksiyalari tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
 - Tormoz kamerasing vazifasi. Konstruksiyasi ishlash prinsipi.
 - Prujinali energoakkumulyatorli tormoz kamerasi konstruksiyasi, tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
 - Pnevmatik yuritmani ta‘minlovchi qismlarning konstruksiyalari:
 - a) Kompresor vazifasi, tuzilishi va ishlashi.
 - b) Bosim rostlagich vazifasi, uning konstruksiyasi va ishlash prinsipini o‘rganish.
 - v) Siqilgan xavoni namlikdan va muzlab qolishdan saqlovchi nam ajratkich konstruksiyasi, tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
 - g)----- klapanlari konstruksiyalari, tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
 - To‘xtatib turish tormoz tizimining konstruksiyasi, tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
 - Tikamani tormozlovchi moslamalarning vazifasi, konstruksiyasi, tuzilishi va ishlashini o‘rganish.
 - Pnevmo-gidravlik toromz yuritmasining vazifasi, konstruksiyasi va ishlashini o‘rganish.

AVTOMOBIL ISHCHI TORMOZ TIZIMINING SXEMASI



- 1 - DVIGATEL KIRITISH TRUBOPROVODI
- 2 - QAYTARISH KLAPANI
- 3 - TORMOZ PEDALI
- 4 - ASOSIY TORMOZ SILINDRI
- 5 - PORSHEN
- 6 - QAYTARISH PRUJINASI
- 7 - O'TKAZISH KLAPANI PRUJINASI
- 8 - QAYTARISH KLAPANI
- 9 - O'TKAZISH KLAPANI
- 10 - GIDROVAKUUMLI KUCHAYTIRGICH
- 11 - HAVO FILTRI
- 12 - 14 - G'ILDIRAK SILINDRLARI
- 13 - OLDINGI G'ILDIRAK TORMOZ MEKANIZMI
- 15 - ORQA G'ILDIRAK TORMOZ MEKANIZMI

5. Xisobot mazmuni

1. Tormoz boshqarmasi va uning qismlarining vazifasi.
2. Gidravlik tormoz yuritmasi tormoz tizimining sxemasi.
3. Kuzatish mexanizmlari to'g'ri va teskari io'lovchi tormoz kranining sxemasi va ishlash prinsipi.
4. Tormoz boshqarmasining asosiy parametrlarinin qiyosiy jadvali

№	Ko'rsatkichlar	Avtomobil turi			
		Neksiya	KamAZ	ZIL	Matiz
1.	Ishchi tormoz yuritma turi	gidravlika	pnevmatika	pnevmatika	Gidravlika
2.	Tormoz mexanizmining turi: - oldingi g'ildirakda - orqa g'ildirakda	Gidro-mex	Pnevmo-mex	Pnevmo-mex	Gidro-mex
3.	Gidravlik tizimdagi suyuqlik bosimi: - oddiy tormozlashda - tez tormozlashda MPa	0,04 0,05	0,10 0,12	0,10 0,12	0,04 0,05
4.	Ballondagi maksimal bosim MPa	0,02	0,05	0,05	0,02
5.	Qo'l tormoz tizimi yuritmasi	Mex	pnevmo	pnevmo	Mex

Nazariy savollari

1. Tormoz yuoshqarmasining vazifasini ayting.
2. Tormoz mexanizmi vazifasi nima?
3. tormoz yuritmasining vazifasi nōima?
4. Avtomobilga qo'yilgan tormoz tizimlari va ularning vazifalarini ayting.
5. Tormoz mexanizmlari qanday mezonlar bilan baxolanadi?
6. Barabanli tormoz mexanizmlari, kolodkalar tayanchining joylashuvi va keltirilgan kuchlarning xarakteriga qarab qanday turlarga bshlinadi.
7. Keltirilgan kuchlari teng bo'lgan va tayanchlari bir tarafga joylashgan tormoz mexanizmlari avtomobilning qaysi g'ildiragiga qo'yilgan va nima uchun?

8. Keltirilgan kuchlari teng bo'lgan va tayanchlari ikki tarafda joylashgan tormoz mexanizmlari avtomobilning qaysi g'ildiragiga qo'yilgan va nima uchun?
9. Kolodkalari teng siljuvchi tormoz mexanizmlari qanday avtomobillarda qo'llaniladi?
10. Tormoz mexanizmining asosiy detallarini ayting?
11. Tormozlash jarayonida avtomobil nimani xisobiga to'xtaydi?
12. Oldi va orqa tormoz mexanizmlarining konstruksiyalari nima uchun xar xil?
13. Gidravlik yuritmalı tormozlar tarmog'ida pedal nima xisobiga erkin xarakatlanadi?
14. Tormoz yuritmasining vazifasi nima? Uning turlarini ayting.
15. Gidravlik tormozlar tarmog'idagi bosim qanday va u nima bilan ta'minlanadi?
16. Ishchi tormoz tizimida zaxira tormoz tizimi qayerda?
17. Qaysi yuritma orqali tormozlansa, xaydovchiga avtomobilni to'xtatish yengil bo'ladi?
18. Avtomobildagi to'xtatib turish tormozi bilan, xarakat vaqtida avtomobilni to'xtatsa bo'ladimi?
19. To'xtatib turish tormoz tizimining yuritmalarini ayting.
20. Gidravlik tormoz tizimiga kiruvchi elementlarning nomini ayting.
21. Asosiy tormoz silindri nima uchun kerak?
22. Ishchi tormoz silindrining vazifasini ayting.
23. Nima uchun ishchi tormoz silindrlarining diametrlari oldi va orqa g'ildiraklarda xar xil?
24. Tormoz tizimda rostlagich nima uchun kerak?
25. Asosiy tormoz silindridagi barqarorlash teshigining vazifasi nima?
26. Asosiy tormoz silindrining asosiy elementlarini ayting?
27. Kompessorning vazifasi nima?
28. Tormoz kamerasining vazifasi nimadan iborat.
29. Pnevmatik yuritmalı tormoz tizimida xavoning maksimal bosimi qancha bo'ladi?
30. Gidravlik va pnevmatik yuritmalar bir-biriga nisbatan qanday afzallik va kamchiliklarga ega.
31. Bosimni cheklovchi klapaning zaruriyati nimadan iborat?
32. Pnevmatik tormoz tizimida, siqilgan xavoni namlikdan va muzlab qolishdan saqlovchi moslamalar nima uchun kerak?
33. Kombinatsiyalashgan tormoz yuritmasi qaysi avtomobillarda qo'llaniladi?
34. Aralash tormoz krani yakka krandan nima bilan farqlanadi?

6. Laboratoriya ishini bajarish uchun kerakli jixozlar va tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. KamAZ avtoombilining elektrlashtirilgan tormoz tizimi.
2. Gidravlik yuritmalı yengil avtomobilning elektrlashtirilgan tormoz tizimi.
3. Tormoz tizimining asbob-anjomlari majmui.
4. Tormoz boshqarmasi konstruksiyalarin ko'rsatuvchi plakatlar majmui.
5. Adabiyotlar:

18– Laboratoriya ishi.

Ixtisoslashtirilgan transport vositalari.

1. Bajariladigan laboratoriya ishidan ko‘zlangan maqsad:

Talabalarga ixtisoslashtirilgan transport vositalarining vazifasi va unga kiruvchi transport vositalarini tushuntirish. O‘zi ag‘dariluvchi avtomobillar. Ularning ko‘tarish mexanizmlari. Avtomobil – sisterna va avtomobil furgonlarning vazifasi, tuzilishi va ishlashini o‘rganishdan iboratdir.

2. Laboratoriya ishining mazmuni.

- O‘zi ag‘dariluvchi avtomobillarning konstruksiyalarini o‘rganish.
- Ko‘tarish mexanizmlarining tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish.
- Avtomobil-sisterna konstruksiyalarini o‘rganish.
- Avtomobil furgonlarning konstruksiyalarini o‘rganish.

3. Laboratoriya ishida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun beriladigan asosiy savollar.

1. Ixtisoslashtirilgan avtomobillarga qanday avtomobillar kiradi?
2. Tirkama deb nimaga aytiladi?
